

O'qituvchi  
nimani  
o'ylaydi?

Kuch – bilim va tafakkurda

# Marifat

Ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy nashr

1931-yildan chiqib boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2025-yil 28-may chorshanba №21(9554)

Xalq ziyolilari gazetasi

Afsuski, turli bayramlarda o'qituvchi, tarbiyachilarga qimmatbaho sovg'alar berish avj olmoqda. Hatto o'zlari so'rab oladigan hamkasblarimiz ham bor ekan. To'g'ri, besh qo'l barobar emas. Ammo sovg'ani so'rab olish o'qituvchiga isnod. Faoliyatim davomida sakkizta sinfga rahbarlik qilganman. Biror narsa so'ramaganman, ota-onalardan ham, o'quvchilarimdan ham. Shuning uchun barcha o'qitgan o'quvchilarim va ota-onalari oldida qaddimni tik tutib yuraman.

Laganbardorlik qilib rahbarlarga ham sovg'a bermaganman. Muttahamlik joyim bo'lmagani-dan keyin nega sovg'a-salom berishim kerak?!

Norchuchuk NORMURODOVA

*Hikoya bosh qahramoni Shamshetov –  
o'zbek adabiyotida yangi qahramon.  
Yangiligi faqat uchuvchi bosh  
qahramon sifatida tanlangani-  
da emas, dangal o'zbek  
xarakteri, timsoli ochib  
berilganida ham.*

Хайридин  
СУЛТОН

Xayriddin  
SULTON

Хайридин  
СУЛТОН  
**ОСМОНИ  
ФАЛАКЛАРДА**

Xayriddin  
SULTON  
**OSMONI  
FALAKLARDA**



Husan-KARVONLI:

## “OSMONI FALAKLARDA”GI O'YLAR

yoki mardaklardan ogohlantiruvchi asar

9bet



## Taqriz



Mumtoz adabiyot namunalari ko‘p asrlik tarixga ega, ular yaratilgan davrdagi til, uslub va badiiy vositalar bugungi kitobxon uchun murakkab bo‘lishi tabiiy. Bu esa matnlarni zamonaviy o‘quvchi uchun tushunarli shaklga keltirish – moslashtirish zaruratini keltirib chiqaradi. Moslashtirish jarayoni qator maqsadlarni ko‘zlaydi. Jumladan, asar g‘oyasi va mazmunini saqlab qolgan holda zamonaviy til me‘yorlariga moslash, murakkab so‘z va iboralarni bugungi kitobxon tushuna oladigan muqobillari bilan almashtirish, asarning badiiy-estetik qiymatini yo‘qotmasdan uni keng kitobxonlar ommasi uchun qulaylashtirish kabilar.

Moslashtirishning asosiy tamoyillari asliyatga sodiqlik, zamonaviylashtirish me‘yori, izohlar tizimini o‘z ichiga oladi. Bu asarning g‘oyaviy-badiiy mohiyatini to‘liq saqlash, muallifning uslubiy xususiyatlarini iloji boricha aks ettirish, davr ruhini saqlab qolishni o‘z ichiga oladi.

Matnni zamonaviylashtirishda muayyan chegaralar – eskirgan so‘zlarni zamonaviy muqobillari bilan almashtirish, grammatik shakllarni hozirgi til me‘yorlariga moslash, jumla tuzilishini soddalashtirib, tushunarli qilish muhim. Moslashtirilgan matnga ilmiy-izohli apparatni ilova qilish zarur. Chunki murakkab so‘z va iboralarning ma‘nolarini tushuntirish, tarixiy voqea

3) Tasavvufiy g‘oyalarning ochib berilishi – asardagi chuqur irfoniy ma‘no va ramzlar zamonaviy tilda ifodalanishi orqali kitobxonlar uchun tushunarli tarzda yetkazilgan.

4) Badiiy obrazlarning saqlanishi – matnni zamonaviylashtirish asar badiiyati, obrazlar tizimi va ramziy ma‘nolar saqlab qolinganda amalga oshirilgan.

5) Ilmiy ahamiyati – matnning hozirgi o‘zbek adabiy tiliga moslashtirilishi amaliy adabiyotshunoslik va tilshunoslik nuqtayi nazaridan ham katta ahamiyatga ega, mumtoz adabiyot namunalarini o‘rganish va tadqiq etishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

## AMALIY ADABIYOTSHUNOSLIK MAHSULI

“Lison ut-tayr”ning “yangi hayoti”  
yoxud moslashtirilgan matn

va shaxslar haqida ma‘lumot berish, badiiy san‘at va ramziy ma‘nolarni sharhlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Qomusiy olim Baxtiyor Mengliyev tomonidan o‘zbek ilmida katta xazina yaratildi. Bu buyuk Alisher Navoiy bobomizning falsafiy asari “Lison ut-tayr”ning hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi moslashtirilgan matnidir. Ushbu muhtasham ish alohida e‘tiborga loyiq. Ustoz tomonidan tayyorlangan moslashtirilgan matn nafaqat ilmiy-nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega, bu sohada yangi yo‘nalish, ya‘ni “O‘girma ilmi” (atama – Baxtiyor Mengliyevniki) o‘quv fani ijtimoiy ehtiyoj ekanligi asoslab berildi. Muallif Navoiy asarining badiiy, g‘oyaviy va mazmuniy xususiyatlarini saqlagan holda bugungi kitobxon uchun qiziqarli hamda tushunarli shaklga keltira olgan. Bu esa katta mahorat va chuqur ilmiy-nazariy tayyorgarlikni talab etadigan ish bo‘lib, us-toz buning uddasidan chiqqa olgan.

Mumtoz asarlarni moslashtirish – murakkab va mas‘uliyatli jarayon, u adabiyotshunoslik, tilshunoslik va tarjimashunoslik sohalarining uyg‘unligini talab etadi. Bu jarayonda asarning asl mohiyatini saqlagan holda zamonaviy kitobxon uchun tushunarli va qiziqarli qilish – muhim vazifa. Moslashtirilgan matnlar ustida ishlashda professional yondashuv, chuqur bilim va tajriba talab etiladi. Professor Baxtiyor Mengliyevda bunday salohiyat, zakovat juda yuqori ekanligi mazkur ishga qo‘l urganidan va muvaffaqiyatli natijadan yaqqol sezilib turibdi.

Asarning ilmiy apparati ham alohida e‘tirofga loyiq. Olim qo‘llagan moslashtirish tamoyil va mezonlari ilmiy asoslangan, ular qator afzalliklarga ega. O‘girmada Navoiy uslubining o‘ziga xosligi aks ettirilib, zamonaviy til me‘yorlariga mosligi, ilmiy-izohli apparatning mukammalligi ta‘minlangan. Moslashtirilgan matnning yana bir muhim jihati – unda qo‘llangan innovatsion yondashuv. Muallif, an‘anaviy usullar bilan bir qatorda, zamonaviy tilshunoslik va adabiyotshunoslik yutuqlaridan ham unumli foydalangan. Bu matnning ilmiy-nazariy saviyasini yanada oshirgan.

Moslashtirishning lingvistik, badiiy-estetik va ijtimoiy-madaniy muammolari mavjud, olim bu qiyinchiliklarni yengib o‘tgan. Arxaik so‘zlarning zamonaviy muqobillarini tanlash qiyinchiligi, grammatik shakllarni moslashtirish murakkabligi, uslubiy xususiyatlar va asar badiiyatini saqlash masalasi, ramziy ma‘nolarni o‘quvchiga yetkazish muammosi, tasviriy vositalarni saqlash zaruriyatiga silliqqina yechim topilgan.

Alisher Navoiy “Lison ut-tayr” asarini hozirgi o‘zbek tiliga moslashtirish muhim ahamiyatga ega, quyidagi yutuqlarni alohida qayd etish mumkin:

1) Tilning soddalashtirilishi – asar matni zamonaviy o‘zbek tiliga moslashtirilishi tufayli keng kitobxonlar ommasi uchun tushunarli bo‘ldi. Bu esa asarning g‘oyaviy-badiiy qimmatini to‘liqroq anglash imkonini beradi.

2) Yoshlar uchun qulaylik – yoshlarning asarni o‘qish va tushunishi ancha osonlashdi. Bu milliy adabiyotimizning nodir namunalarini yosh avlodga yetkazishda muhim qadam hisoblanadi.

Bu yutuqlar Alisher Navoiy merosini keng ommaga yetkazish va uni o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu kabi ishlar klassik adabiyotimizni zamonaviy kitobxonga yaqinlashtirish va milliy-ma‘naviy qadriyatlarimizni asrab-avaylashda muhim o‘rin tutadi.

Shuni ta‘kidlash kerakki, “Lison ut-tayr”ning falsafiy g‘oyalarini bugungi kitobxon tushunishi, uqishi hamda tarbiyaviy ahamiyatidan oziqlanishi uchun mazkur tabdil dasturulamali bo‘lishi shubhasiz. Hudhud tilidan aytilgan quyidagi nasihatomuz javobga diqqat qiling:

*Nafsing senga gar yaqindir shunchalar,  
Hatto Iblis ip esholmas bunchalar.*

*Nafs ko‘nglingga qancha solgay g‘ururni,  
Va yetkazgay qalbga shuncha puturni.*

*Uni ko‘rib shayton bo‘lar xo‘p hayron,  
Hayrat dashti uzra bo‘lur sargardon....*

*...Dema shayton seni xor-zor qilibdi,  
U nafsingni vakil qilib olibdi....*

Insonni xor etadigan nafsning ofati haqidagi baytlarning bugungi o‘zbek tilimizga moslashtirilgani hech qiyinchiliksiz, yengil va silliq o‘qiladi hamda uqiladi. Asarning har bir misrasi – Insonning hayotini yorituvchi, unga ta‘lim-tarbiya berib, to‘g‘ri yo‘lga boshlovchi, umr mohiyatini, din mazmunini anglashga ko‘maklashuvchi bebaho durdona. Mana shu ne‘matdan bugungi o‘quvchining bahramand bo‘lishiga katta hissa qo‘shgan ustozimizga cheksiz tashakkur izhor etamiz.

Asarning o‘quv jarayonidagi ahamiyati ham katta. Moslashtirilgan matn maktab partasida o‘tirgan o‘quvchilardan tortib oliy o‘quv yurtlari talabalari, magistrantlar va tadqiqotchilar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, u keng kitobxonlar ommasiga ham mo‘ljallangan. Baxtiyor Mengliyev tomonidan amalga oshirilgan bu tadqiqot o‘zbek mumtoz adabiyotini o‘rganish va targ‘ib qilish borasida muhim qadam bo‘ldi. U nafaqat “Lison ut-tayr”ni o‘rganish, balki boshqa mumtoz asarlarni moslashtirish uchun ham metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, mazkur tadqiqot nafaqat navoiyshunoslik, balki umuman, o‘zbek amaliy adabiyotshunosligi, amaliy tilshunosligi uchun ham katta ahamiyatga ega. U mumtoz asarlarni moslashtirish sohasida yangi yo‘nalish ochib, bu borada kelajakda amalga oshiriladigan tadqiqotlar uchun ilmiy-nazariy va amaliy asos yaratdi. Moslashtirilgan matnni ta‘lim muassasalarida keng joriy etish, uni elektron formatga o‘tkazib, onlayn platformalarda joylash hamda asarning audio versiyasini yaratish borasida amaliy ishlarni kun tartibiga qo‘yish kerak.

Shahnoza G‘ULOMOVA,  
filologiya fanlari doktori

*Mutafakkir podshoh Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek(1394–1449) davri(1409–1449)da Movarounnahrda fan, madaniyat va adabiyot gullab yashnagan. Alisher Navoiy ta‘biri bilan aytganda: “Donishmand podshoh erdi. Kamoloti bag‘oyat ko‘p erdi. Yetti qiroat bila Qur‘oni majid yodida erdi. Hay‘at va riyoziyini xo‘b bilur erdi. Andoqkim, zij bitidi va rasad bog‘ladi va holo aning ziji oroda shoe‘dur. Bovujudi bu kamolot goho nazmg‘a mayl qilur erdi”. Albatta, Navoiy Ulug‘bekni “kamoloti bag‘oyat ko‘p erdi” deya, uning turli ilmlardan xabardor mutafakkir olim bo‘lganiga urg‘u bermoqda. Valiy shoir Ismatilla Buxoriy “Dar borayi Ulug‘bek” qasidasida hikmat sohibi bo‘lgan olim temuriyzoda haqida shunday yozgan:*

*Ulug‘bek sultone,  
ki az haybati boisash,  
Zar-u boh amin cho‘yad,  
ba har shabihi sher-u nar.  
Chu Suqrot-u Buqrot,  
base chovush-u darbon,  
Chu Xurshed-u Jamshidat,  
base bandavu chokar.  
Zi bahsi tu dar hay‘at  
Arastu shud mulzam,  
Zi nutqi tu dar hikmat  
shud bo‘ Ali mahzar.*

(Mazmuni: Ulug‘bek shunday sultondir, uning haybatidan barcha nafs qullari erkak sherdan qo‘rqqani kabi omonlik tilaydilar. U Suqrot va Buqrot kabi hikmat eshiklarini ochuvchi, uning eshigida Xurshid va Jamshiddek buyuk shohlar ham banda va askar bo‘lishga yaraydi. Uning hay‘atidan Arastu mulzam bo‘ldi. Uning hikmatli nutqidan Ibn Sino mahzar bo‘ldi).

Birinchidan, mutafakkir temuriy shahzoda Navoiy aytganidek, ba‘zan she‘rlar ham yozib turgan. Quyidagi bayt Mirzo Ulug‘bekka nisbat berib kelingan:

*Harchand mulki husn  
ba zeri nigini tust,  
Sho‘xy makun ki chashmi  
badon dar kamini tust.*

(Mazmuni: Go‘zallik mulki qo‘l ostingda bo‘lsa-da, sho‘xlik qilmag‘ilki, yomonlarning ko‘zi seni kuzatmoqdalar).

Binobarin, manbalarda Ulug‘bekning she‘riyat ilmidan yaxshi xabardorligi, shoir Ismatillo Buxoriydan aruz vaznini o‘rganganligi hamda o‘zi ham she‘rlar yozgani haqida ma‘lumotlar bor. Ulug‘bekning ijodi serqirra bo‘lib, u tarix, she‘riyat va musiqa bobida ham qalam tebratgan. “Temur va Ulug‘bek davri tarixi” kitobida yozilishicha, “*Afsuski, she‘rlarining matnlari so‘nggi davrlargacha noma‘lum bo‘lib qolayotir. Faqatgina birgina davrimizga yaqin zamonda yashagan shoir uning she‘rlaridan namuna keltiradi.*

*Shunisi diqqatga sazovorki, Ulug‘bekning buyuk zamondoshlari adiblar Mavlono Sakkokiy va Mavlono Lutfiy Mirzoning shoirlik mahoratini yuqori baholaganlar*”. Adabiyotshunos Vohid Zohidovning yozishiga ko‘ra, “*Ulug‘bek she‘r yozish bilan mashg‘ul*



# “KAMOLOTI BAG‘OYAT KO‘P ERDI” yoki Navoiy nazdida Mirzo Ulug‘bek

*bo‘lsa-da, adabiyotni sevsa-da, lekin asosan aniq fanlarni(astronomiya, matematika va h.k.) atroflicha egallaydi, zamonining mashhur astronomlaridan ko‘plarini o‘z qo‘lida saqlaydi, ularga juda katta, ham shohona, ham olimona iltifot va muhabbat ko‘rsatadi”.*

Mirzo Ulug‘bek atrofida shoirlarni to‘plab, adabiy majlislar o‘tkazishni yoqtirgan. Mavlono Badaxshiy, Ismatillo Buxoriy, Sakkokiy va boshqa ko‘plab saroy shoirlari Mirzo Ulug‘bekning “firdavsmonand” majlislarida doimiy qatnashishgan va o‘z she‘rlarini ushbu yig‘inlarda o‘qishgan. Mavlono Sakko-kiyning quyidagi baytlari bunga yaqqol misoldir:

*Falak yillar kerak sayr  
etsa-yu keltursa ilkingga,  
Meningtek shoir-u turkiy-u  
saningtek shohi dononi.  
Hamisha majlising bo‘lsun,  
behisht-u guluston rashki,  
Nisor etsun qadumungda  
falak lu-lu loloni.*

Adabiy va tarixiy manbalardan temuriy shahzoda huzurida o‘tkazilgan adabiy yig‘ilishlar haqida ma’lumot olishimiz mumkin. Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro”sida Mirzo Ulug‘bek adabiy majlislarining mazmun-mohiyati to‘g‘risida shunday yozilgan: “*Ulamu-yu fuzalo Sayfiddin Isfarangiy devonini **Ulug‘bek ko‘ragon majlislarida** o‘qir, uning so‘zlarini Asiriddin Axsikatiy so‘zlaridan ortiq ko‘rar edilar*”. Bundan ma’lum bo‘ladiki, Mirzo Ulug‘bek saroyidagi adabiy majlislarda Sayfiddin Isfarangiy va Asiriddin Axsikatiy asarlari bir-biriga muqoyasa qilib o‘qilgan va bu ikki shoirdan qaysi biri mahorat bobida ustunligi haqida fikr-mulohazalar aytilgan. Shunisi diqqatga sazovorki, biron-bir shoir ijodi haqida ko‘p hollarda Ulug‘bekning o‘z mustaqil fikri bo‘lib, u o‘sha davrdagi umum fikri yoki boshqa adabiyot muxlislarining mulohazalariga doim ham mos kelavermagan. Bundan tashqari, Davlatshoh Samarqandiy she‘rlari Ulug‘bek majlislarida o‘qilgan, ota va o‘g‘il shoirlar: Jamoliddin va Kamoliddin Isfahoniylar haqida shunday yozgan: “*Malik ul - fuzalo Jamoliddin Muhammad Abdurazzoq Isfahoniy Isfahonning akobir va ulamolaridin turur. Shoiri xushgo‘y erdi, joh-u martaba va qabuli tamomi bor erdi va Kamoliddin Ismoil aning o‘g‘li turur. Sultoni said Ulug‘bek Ko‘ragon Jamoliddin Muhammadning suxanini Kamoliddin Ismoilning suxanig‘a tarjih qilur erdi va borho aytur erdi: “Manga ajab ko‘rinurkim, bovujudi otaning suxani pokizaroq va shoironaroq turur”*”.

Mirzo Ulug‘bek saroyida “xamsaxonlik” va “shohnomaxonlik” o‘tkazish an‘anaga aylangan edi. Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro”sidagi ma’lumotlarga asoslansak, Boysunqur mirzo Dehlaviyning, Ulug‘bek esa Nizomiyning “Xamsa”sini xush ko‘rgan.

Binobarin, G‘ulom Karimiya ko‘ra, “*Tabiiyki, shahzodalar o‘rtasida adabiyotga doir bahs va tortishuvlar bo‘lib turgan. Bu haqda Davlatshoh quyidagicha yozadi: “Amirzoda Boysunqur Amir Xusrav Dehlaviyning “Xamsa”sini Shayx Nizomiyning “Xamsa”siga tarjih qilur erdi va xoqoni mag‘fur Ulug‘bek bahodir bu ma’nini qabul qilmas erdi va Shayx Nizomiyg‘a mu‘taqid erdi va bu ikki podshohning orasida karrot-umarrot taassub hosil bo‘lg‘on, har bir-lari bir shoirg‘a himoyat bo‘lg‘on erdi”*. Ushbu jumalarni Muhammad Rafe‘biroz o‘zgartirib tarjima qilgan bo‘lsa-da, umumiy mazmun buzilmagan. Biroq Bo‘riboy Ahmedovning “Davlatshoh Samarqandiy” risolasida oxirgi jumla tarjimasida bir qancha xatolarga yo‘l qo‘yilgan bo‘lib, u o‘quvchida aka-uka shahzodalar haqida noto‘g‘ri tasavvur uyg‘otadi: “*Shu sababdan bu ikki podshoh o‘rtasida ranjish va jirkanish voqe bo‘lgan va ularning har biri bir shoirga himoyat qilgan edi*”. Holbuki, asar asliyatida “ranjish” va “jirkanish” so‘zlari umuman mavjud emas. Muqoyasa uchun ushbu jumla asliyatini keltiramiz: “*Mo-bayni in du shahzodayi fozil ba karrot jihati in da‘vo taassub dast doda, bayt-bayt “Xamsatayn”ro boham muqobil kardaand*”. So‘zma-so‘z tarjimasida: “*Bu ikki fozil shahzoda o‘rtasida ushbu da‘vo yuzasidan ko‘p bora qattiq tortishuvlar yuz berib, ular birgalikda ikkala “Xamsa”ni baytma-bayt qiyoslab chiqdilar*”. Demak, ulug‘ajdodlarimiz haqidagi nodir ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan mo‘tabar manbalarni tadqiq va tarjima qilish ishlariga halollik va mas’uliyat bilan yondashmog‘imiz zarur”.

Ulug‘bekning ukasi Boysunqur mirzo “Shohnoma”ning turli nusxalarini to‘plab, asarning ilmiy-tanqidiy matnini tuzdirgan bo‘lsa, Mirzo Ulug‘bek saroyida shohnomaxonlik o‘tkazilgan. “Latofatnoma”da yozilishicha, “*Said Imod Xubonziy fozil va xushta‘b kishi erdi. U mana bularni hikoya qiladi: “Mirzo Ulug‘bekning majlislaridan birida Firdavsiyning “Shohnoma”si o‘qildi. Mirzo undagi ba‘zi she‘rlarining ma‘nosini(yechishni) ahli majlisga havola qildi. Movarounnahrlik bir kishi “Shohnoma”ni mirzoga, uning yaqinlari va mahramlariga xush kelmaydigan bir ohangda o‘qidi. Mirzo taajjublandilar va men(Xubonziy)ga murojaat qilib, “ushbu so‘z aslida qayerdin chiqqan?”, deb so‘radilar. “Xurosondin chiqqan”, deb javob qildim, movarounnahrliklar mening ziddimni olib, “ha, xurosonliklar o‘z majlislarida(bu lafzni) shunday talaffuz qiladilar”, dedilar. Men so‘zimni davom etib, “Xurosonda biron she‘rni yoki boshqa narsani o‘qiganlarida buzib o‘qiydilar, masalan, “zafar askan” (“zafar maskani”) “so‘zini zafarboz”(“zafar o‘yini”) deb o‘qiydilar” dedim. Mirzo javobimdan mamnun bo‘ldilar va kaminaga xos choponlarni in‘om qilib, “minba‘d mening huzurimda “Shohnoma” bunaqa buzib o‘qilmasin!” – deb amr qildilar*”.

Ikkinchidan, adabiyotni tushungan Mirzo Ulug‘bek tarixiy asarlar ham yozgan. Uning 1425-yili yozib tamomlagan “To‘rt ulus tarixi” (“Tarix-i arba’ulus”) asari tom ma’noda butun temuriylar saltanati egallagan mamlakatlar tarixini ifodalagan. Akademik Bo‘riboy Ahmedovning yozishicha, “Tarix-i arba’ulus” Ulug‘bek yaratgan asarlar orasida alohida o‘rin tutadi.

Mashhur tarixchilardan biri Mirzo Muhammad Haydar ham Ulug‘bek tarix ilmi sohasida ham samarali mehnat qilganligini aytadi. Masalan, uning “Tarix-i Rashidiy” nomli yirik kitobida bu haqda mana bularni o‘qiyimiz: “*Donishmand podshoh Mirzo Ulug‘bek bir tarixiy asar yozdi va unga “Ulus-i arba’” deb nom qo‘ydi. Ulug‘bekning shunday asar yozganligini Xondamir va Mahmud Vali ham tasdiqlaydilar.*

“Tarix-i arba’ulus”ning nusxalari juda kam. Asarning to‘liq nusxasi hali topilganicha yo‘q. Bugungi kunda uning qisqartirilgan to‘rtta nusxasi saqlangan bo‘lib, uning ikkitasi Angliyada, bir nusxasi Hindistonning Bankipur shahri kutubxonasida, to‘rtinchi nusxasi AQSHning Harvard universitetida saqlanadi”.

Bundan tashqari, “Tavorixi guzida nusratnoma” (“Saylanma solnomalar, g‘alaba kitobi) kitobini yozgan nomal’um muallif o‘z risolasini bitishda Ulug‘bek mirzo nomidan yozilgan “Muntaxab at-tavorixi shohiy” risolasidan saralab, foydalanganini aytgan.

Uchinchidan, Ulug‘bek ibratli voqealarni hikoya qiluvchi rivoyatlar yozganligi haqida ham ma’lumotlar mavjud. Uning “Risolayi Ulug‘bek” deb atalgan asari hozir Hindistondagi Aligarx kutubxonasi qo‘lyozmalar fondida saqlanadi, lekin u haligacha tadqiq etilmagan.

To‘rtinchidan, “Zij”dan tashqari uning qalamiga mansub matematik asari – “Bir darajali sinusini aniqlash haqida risola” kitobi ham bor.

Beshinchidan, mashhur “Ziji Ko‘ragoniy” asarida 1080 ta yulduz o‘rnini o‘ta aniqlik bilan aks ettirgan. Samarqand rasadxonasida olib borilgan kuzatishlar natijasida Ulug‘bek 1437-yili “Ziji Ko‘ragoniy” risolasini yozib tugatadi. Asar nazariy qism hamda rasadxonadagi tadqiqotlar yakuni – Ulug‘bek taqvimidan iborat. Uning bitta qo‘lyozmasi O‘zR FA Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda.

Hazrat Alisher Navoiy Samarqand shahrida bo‘lganda, “Ziji Ko‘ragoniy”ni mutolaa qilgan va “Ko‘zi oldida osmon past bo‘lgan” olim temuriyzodani va uning “Ziji”ni nazmiy tarzda shunday ifodalagan:

*Shahiki ilm nuri topti zoti,  
Aning to hashr qoldi yaxshi oti.  
Skandar topti chun ilm-u hunarni,  
Ne yanglig‘ oldi  
ko‘rgil bahr-u barni.  
Aningdek saltanat ahli ko‘p erdi,  
Qayu birga bu nav‘ish dast berdi?*

*Iki ming yil o‘tub yuz*

*ming xiradmand,*

*Bo‘lub hikmatlari birla barumand.  
Temurxon naslidan sulton Ulug‘bek,  
Ki olam ko‘rmadi sulton aningdek.  
Aning abnoyi jinsi bo‘ldi barbod,  
Ki davr ahli biridin aylamas yod.  
Va lek ul ilm sori topti chun dast,  
Ko‘zi olinda bo‘ldi osmon past.  
Rasadkim bog‘lamish –*

*zebi jahondur,*

*Jahon ichra yana bir osmondur.*

*Bilib bu nav‘ilmi osmoniy,*

*Ki andin yozdi: “Ziji Ko‘ragoniy”.*

*Qiyomatg‘a dekincha ahli ayyom,*

*Yozarlar oning ahkomidin ahkom.*

*Bilik garchi ko‘runur ko‘zga ziynat,*

*Vale shahlarga bordur o‘zga ziynat.*

*Va gar ilm ichra*

*bo‘lmay birga gone‘,*

*Baridin bahravor bo‘lsang ne mone‘.*

Adabiyotshunos olim Nurboy Jabborov yuqoridagi misralarni shunday sharhlagan: “*Olam Ulug‘bekday sultonni ko‘rmagani haqida yozar ekan, ulug‘shoir uning “abnoyi jinsi” – tengqurlari barchasi dunyodan o‘tib ketganini, davr ahli ulardan birortasini ham yod etmasligini uqtiradi. Tengdoshlaridan farqli ravishda ilmga dast topgani bois Ulug‘bekning ko‘zi oldida osmon past bo‘ldi. U qurdirgan rasadxona “zebi jahon”, ya’ni jahonga ziynatdir: Hatto uni jahon ichra yana bir osmon, deyish mumkin. “Ziji jadidi Ko‘ragoniy”si uning osmoniy ilmlarni nechog‘liq yuksak darajada bilishiga dalildir. Bu asarning ahamiyati shu qadar balandki, qiyomatgacha astronomiya ilmi bilan shug‘ullanuvchilar uning ilmiy hukmlariga tayanadilar*”. Binobarin, Mir Sadr Sharifjon Maxdumning yozishicha, uning kutubxonasida “Ziji Ko‘ragoniy”ning Mirzo Ulug‘bek ko‘chirgan asl nusxasi saqlangan: “*Ul hakim, dono podshohning asarlaridan va ul xusravi olim va tengsiz amaliyotchining o‘z qo‘li bilan yozganlaridan, ya’ni asar muallifi ham va xattoti ham Mirzo Ulug‘bek bo‘lgan asl nusxa(kamina kutubxonasida saqlanmoqda)*”. Ma’lumotlarga qaraganda, hozirgi kunda “Ziji” asarining yuzga yaqin forsiy nusxasi va 15 ta arab tilidagi nusxasi mavjud.

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida Mirzo Ulug‘bekning samarqandlik xattot Azizullo tomonidan nasx xatida taxminan 1439-yilda, Ulug‘bek 45 yoshda bo‘lganida ko‘chirilgan “Ziji Ko‘ragoniy” saqlanmoqda. Qo‘lyozma sahifalarida Ulug‘bekning tuzatishlari ham bor. Ushbu tuzatishlar uning dastxati, yozuvi haqida ma’lumot beradi”.

Mirzo Ulug‘bek huzurida ilmiy majlislar ham o‘tkazib turilgan.

Muxtasar qilib Navoiy iborasi bilan aytganda, Mirzo Ulug‘bekning “kamolotga erishganligi” mamlakatda milliy uyg‘onish – Temuriylar davri Renessansi yuz berishiga olib kelgan.

Sherxon QORAYEV,  
filologiya fanlari bo‘yicha  
falsafa doktori

## Teran tomirlar



Temuriylar Uygʻonish davri mutafakkiri, fors-tojik adabiyotining buyuk namoyandasi Abdurahmon Jomiyning ulugʻ shaxsi, u yozgan durdona asarlarga qiziqish uning shonli zamonidan boshlanib, bugungi kunga qadar soʻnmay kelmoqda. Jomiy zamondoshlarining adabiy-tarixiy asarlarida keltirgan qimmatli maʼlumotlari Alisher Navoiy, Sulton Husayn Boyqaro, Abdurazzoq Samarqandiy, Davlatshoh Samarqandiy, Zayniddin Vosifiy, Mirxond, Xondamir, Bobur asarlarida uchraydi. Keyingi asrlarda esa Navoiy va Jomiy maktabi taʼsirida badiiy adabiyotga kirib kelgan Mirzo Haydar, Hasanxoʻja Nisoriy, Mutribiy Samarqandiy, Aliy Safiy kitoblarida Jomiy toʻgʻrisida nodir maʼlumotlar bitishgan.

Navoiy yozgan maʼlumotlarga asoslansak, Jomiy haqida xabarlar malik ul-kalom Lutfiyga tegishlilikini koʻramiz, ammo bu maʼlumotlar ham Navoiy asarlarida Lutfiy toʻgʻrisida bitilgan fiqralarda keltirilgan. Yaʼni birinchi maʼlumot vasiyat tarzida boʻlib, “Majolis un-nafois” tazkirasida berilgan oʻziga xos vasiyatlarning uchinchisidir. Mazkur vasiyatni B.Rajabova “Boqiy vasiyatnomalar” kitobida tahlil qilgan. Bu toʻqson toʻqqiz yoshdagi Lutfiyning vafoti oldidan shogirdi Abdurahmon Jomiyga aytgan vasiyatidir. Navoiy tazkirada yozishicha, Lutfiy oʻz vasiyatida yakunlashga koʻzi yetmagan “aftad” radifli gʻazalini Jomiy yakunlab, oʻz devoniga kiritishini vasiyat qiladi.

Lutfiy haqidagi maʼlumotda bizni qiziqtirgan masala – “*Va oʻtar vaqtida bu gʻazal matlaʼinkim, tuganmaydur erdi, vasiyat qildikim, hazrati Maxdumiy Nuran tugatib, oʻz devonlarida bitsunlar...*” degan muhim maʼlumotdir. Lutfiy devonini nashrga tayyorlagan S.Erkinov mazkur vasiyatning ijrosi haqida “Lutfiy va Jomiyning munosabatlaridan lavhalar” nomli bobida batafsil toʻxtalgan.

Endi “Nasoyim ul-muhabbat”dan oʻrin olgan “Mavlono Lutfiy zikri”ga murojaat qilsak. Unda Navoiy jozibali hikoya bayon qilgan. “Suxan” – Mavlono Lutfiyning “Suxan” radifli sajʼ qasidasi. Hirot adabiy muhitida juda mashhur boʻlgan mazkur qasida Abdurahmon Jomiyga bagʻishlab yozilgan. Bu haqda Navoiy alohida mehr va zavq bilan bayon qilgan: “*Toʻqson yoshidin tajovuz qilgʻonda, Hazrati Maxdumi otigʻa radifi “Suxan” sajʼ qasidaye aytib erdiki, zamon xushgoʻylari barcha xoʻbluqqa musallam tuttilar*”.

Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat” va “Majolis un-nafois” tazkiralarda Jomiyga alohida fiqralar bagʻishlagan. Mazkur fiqralar oʻzbek va tojik adabiyotshunoslari tomonidan diqqat bilan oʻrganilgan. Ayniqsa, “Majolis un-nafois”ning muqaddima qismida buyuk mutafakkirning oʻgʻli Ziyovuddin Yusufga bagʻishlab yozgan “Bahoriston” asarini tilga olgan va bu asarning yettinchi ravzasini tazkira deb yuksak baholagan. Jomiy mazkur faslda Rudakiydan boshlab to Navoiy va oʻziga zamondosh boʻlgan qalam ahli haqida fiqra shaklida maʼlumot yozganini gapirib oʻtgan. Navoiy tazkirada 459 nafar ijodkor haqida maʼlumot berarkan, asarning 3-majlisini Jomiyga bagʻishlangan fiqra bilan boshlaydi. Oʻrganishimizga koʻra, tazkiradagi Mavlono Sogʻariy, Hofiz Ali Jomiy, Mavlono Mir Ali, Mavlono Masʼud, Mavlono Sulton Ali Qoyiniy, Mavlono Xoja bilan bogʻliq fiqralarda ham Jomiy nomi va asarlari yodga olinadi.

Tazkiraning 3-majlis xulosa qismida Navoiy Jomiy va Sulton Husayn Boyqaroni “bu hazrat-u ul hazrat”

# XV-XVI ASRGA OID MANBALARDA

deb tilga olgan. Mazkur ruboiyda Navoiy Jomiyning vafotiga ishora qilsa, Sultonga uzoq umr tilagan:

*Chun bor edilar bu hazrat-u ul hazrat,  
Kim, ul hazrat haq sari qildi rixlat.  
Bu hazrat koʻp umr ila topsun davlat,  
Men bandagʻa davlatida kunji uzlat.*

Maʼlumki, Abdurahmon Jomiy Temuriylar Uygʻonish davrining katta mulk egasi boʻlgan. U Hirot ichkarisida xususiy mulki hisobidan madrasa qurdirgan. Mazkur madrasada Bobur ham boʻlgan va bu haqda “Boburnoma”da maʼlumot yozib qoldirgan. H.Nisoriy ham Jomiy madrasasini tilga olgan.

Mavlono Masʼud Navoiy va Jomiyga zamondosh shoir boʻlgan. Navoiyning maʼlumot berishicha, u Jomiy madrasasida tahsil olgan. Jomiyga mulozim boʻlgan va mana shu malakalari asosida keyinchalik Shohrux mirzoning katta xotini qurdirgan Gavharshod-begim madrasasi va boshqa madrasalarda mudarrislik bilan shugʻullangan.

Navoiy “Xamsa” dostonlarining kirish qismida Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviylar qatori buyuk xamsanavis sifatida Jomiyga alohida boblar bagʻishlagan. Qizigʻi shundaki, Navoiy Ganjaviy va Dehlaviyga bir bob, Jomiyga esa alohida bob bagʻishlagan. Asarning maʼlum bir lavhalarida Navoiy “Xamsa” dostonlarini birma-bir sanab koʻrsatarkan, buyuk ustozining oʻziga nisbatan qilgan ixlosi, himmati, eʼtirofidan mamnun boʻlganini yozgan. Xususan, u Jomiy portretini badiiy soʻz bilan tasvirlashga harakat qilgan va shu oʻrinda atoqli sharqshunos olim M.Ashrafiyning 1966-yili Germaniyada nashr etilgan “Jomiy XVI asr miniatyuralarida” nomli kitobini eslash joiz.

Navoiy asarlarida Jomiyning oʻttiz sakkiz asari xususida qimmatli maʼlumotlar bitgan. Masalan, “Xamsat ul-mutahayyirin”ning “Uchinchi maqolat” faslida “Kutub va rasoyil bobidakim, alarning musannafo-tining teʼdodi(adadi) budurkim” deb uning 38 asarini sanab koʻrsatgan. Oʻzbekiston Qahramoni Suyima Gʻaniyeva “Navoiy yodga olgan asarlar” risolasida Jomiy kitoblarini tilga olgan va olima Navoiy uchun Jomiy yozgan sharhlarga alohida tushuntirishlar bergan. Bu borada A.Mirzoyev “Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy” nomli maqolasida Jomiy kitob va risolalarining Navoiy hayotida tutgan oʻrnini sharhlagan, yaʼni Jomiy Navoiyni koʻproq ijod qilishga undagani va u Navoiy uchun maxsus risolalar yozgani kabi masalalarni tahlil qilgan. S.Ayniyning yozishicha, Jomiy Navoiyning iltimosi boʻyicha yoinki unga bagʻishlab yigirma yettita fors-tojikcha kitob va risolalar yozgan.

Maʼlumki, Navoiy Xoqoniy qasidalariga javoban yozgan 129 baytdan iborat “Nasim ul-zuhd” (Tatabbuʼi Xoqoni) qasidasida Xusrav Dehlaviy va Xoqoniylar qatorida Abdurahmon Jomiy fahr bilan tilga olgan va ularning oliy klassik uslubi va izidan borib, qasida janrini davom ettirganini qayd etgan, shu maʼnoda Jomiy nomi tilga olingan baytga diqqat qaratamiz:

*Ba Jomi gar nadoram rohi daʼvo andar in maʼni,  
Ki hast ustodi man v-in nazm gashta zebi devonash.*

Mazmuni: Jomiyga uning qasidasi yuzasidan daʼvom yoʻq. Bu(gapim) shu maʼnodaki, bu(zot) “ustodi man” – “mening ustozim” va uning qasidasi devoniga ziynatdir.

Navoiy Jomiy borasida “Muhokamat ul-lugʻatayn”-da iliq gaplar bitgan: “*Barchadin kulliyroq sanad bukim, hazrati irshod panohi... Nuranki... forsiy soʻzda jamʼi alar soʻzidin yuqoriroq soʻz yoʻqtur, koʻproq kutub va rasoil va gʻazaliyot va qasoyidda-ki, maoniy gavharlarin nazm silkiga kiydirur erdilar*

*va zamir nihonxonasidan anjuman tamoshogohigʻa jilva berur erdilar, aning musvaddasin burunroq bu faqirgʻa iltifot va eʼtiqod yuzidin berur erdilarkim, “bu avroqni ol va boshdin oyogʻigʻa nazar sol, xotiring-gʻa har ne aytgʻudek soʻz kelsa, ayt” deb va har ne ishorat boʻlgʻonikim, mazkur boʻldi, zohir qilsam maqbul tushar erdi*”.

Navoiy “Lison ut-tayr” dostonining “Bu kitobda taxallus tagʻyirining uzri” nomli bobida shoirlar taxallusini “tavqi”, “muhr”, “tamgʻo” deb sifatlar ekan, murakkab talmeh sanʼati vositasida Jomiy va uning taxallusini eslagan, buni quyidagi baytlarda oʻqiymiz:

*Kim-oʻzi tahsisigʻa imlodur ul,  
Muhri yo tavqiʼyo tamgʻodur ul.*

*Safha debosi-yu nazm inshosidur,  
Kim taxallus nozimi tamgʻosidur.*

*Bu nishoni birla topti imtiyoz,  
Ne varaqkim nazm qildi ahli roz.*

*Kim bu Saʼdiy, yo Nizomiyningdurur,  
Yo bu Xisravning, bu Jomiyning durur.*



Akademik V.Zohidov “Ulugʻ shoir ijodining qalbi” kitobida “Navoiy “Lison ut-tayr” dostonida Jomiy haqida ham baytlar yozgan” deya izoh bergan.

Xondamir “Makorim ul-axloq” kitobida yozishicha, Navoiyning murabbiy va muqavviyligi bilan Hirot madaniy muhit rivojlangan. Oʻz navbatida, Jomiy va boshqa shoir, adiblar asarlarida maqtovgʻa loyiq holat uchun Navoiyga tahsin aytishgan. “...ul hazrat madhida manzum kitoblar yozdilar, balki haqiqat egasi Maxdumiy Jomiy oʻzlarining koʻp sheʼriy asarlarida bu ravshan fikrli Amirni maqtaganlar. Shuning oqibatida oʻz nafis sheʼrlarining pardoz va bezagini orttirganlar. U qimmatli asarlardan baʼzilarining nomlari quyidagicha: “*Tuhfat ul-ahrar*”, “*Subhat ul-abror*”, “*Layli va Majnun*”, “*Yusuf va Zulayho*”, “*Xiradnomayi Iskandariy*”. Yaʼni Xondamir bu oʻrinda Jomiy Navoiyni tilga olgan asarlarni sanab koʻrsatgan.

Xondamir yana yozadiki, Navoiy Jomiy huzurida va Jomiy Navoiy kutubxonasida mutolaa bilan mashgʻul boʻlgan: “...Xususan, olijanob maxdumi Jomiyga yaqin mulozamatda boʻlib, u kishining huzurida darvish va soʻfiylarning kitoblarini oʻqish bilan shugʻullanar edi. Ul javob Jomiy ham bu bobda qilgan tasniflarini amir huzurida mutolaa qilar va bu kishi(Navoiy) u kitoblarning nozik nuqtalarini fayzli xotiri lavhiga naqshlard, balki ul olijanob bu asarlarni hidoyatli amirning ismi-sharifiga bagʻishlab yozgandir. “*Nafahot ul-uns*” va “*Ashiʼat ul-lamaot*” muqaddimasi oʻqilsa, bu narsa quyoshday ravshan va oshkora boʻladi”.

Shoh va shoir Husayn Boyqaro “Risola” asarida Hirot madaniy muhiti haqida yozar ekan, asosan, Navoiy va Jomiy ijodiga diqqat qaratganini koʻramiz hamda eʼtiroflari isboti uchun tamsil qilib Navoiyning “Xamsa”da Jomiyga bagʻishlab bitgan ikki baytini keltirgan. Navoiy va Jomiy kabi mutafakkirlar bilan zamondosh yashaganiga, ular u bilan ham davlat boshqaruvida, ham madaniy va adabiy muhitda birga ijod qilgani xususida fahr bilan tilga olgan. Kitobda Husayn Boyqaro Nuran Maxdum toʻgʻrisidagi eʼtiroflarini oliy uslubda shunday bayon qiladi: “*Ularning ichida eng bilimli va fazilatlisi, fazilatlar daryosining pok duri va valiylik falagining porloq quyoshi, nazm javohirining sohib intizomi hazrati shayxulislomiy Mavlono Abdurahmon Jomiy(salamahullohu va abqo)dirki... Nazm-u javohiridan jahon sadafi qim-*

# ADABIY-TARIXIY ABDURAHMON JOMIY TASVIRI



*matbaho durga to'la va nasri injularidan falak atlasini ziynatlangandir. Turli fanlar bo'yicha asarlari behad ko'p va har asarida ma'nolar xazinasini behisobdir. G'azallari olamga g'avg'o soluvchi, baytlari latif va hayajon uyg'otuvchidir. Ko'p yillar haq subhonahuv va taolo ularning to'g'ri yo'l ko'rsatishlari soyasi (panohi)ni uzoq qilsin va bu davlat davrida uningdek sohibdavlat umrini ziyoda qilsin".*

Abdurahmon Jomiy borasida uch tarixiy ma'lumotni mumtoz muarrix Abdurazzoq Samarqandiy "Matlayi sa'dayn va majmayi bahrayn" kitobida yozib qoldirgan. Shulardan birinchisi "Xutbani o'zgartirish niyatida bo'lgan va shia mazhabini izhor qilishga mayl ko'rgazgan bir guruhning a'lo Hazrat(Sulton Husayn) tomonidan man etilganligi zikri" faslida Said Ali Voiz Qurbon hayitida islom minbarida turib ahli sunnat kamchiliklari haqida gapirib, shia mazhabi mavqeyini ko'tarish borasida va'z o'qiydi. Buni eshitgan Sulton Husayn Boyqaro bu diniy ishlarning eng muhim masalalaridan biri ekanini anglab, bir guruh diniy ulamo, sudurlarni Abdurahmon Jomiy huzuriga yuboradi. Bu ma'lumotda biz Jomiyning buyuk faqih sifatidagi siymosi bilan tanishamiz. Jomiyshunos olim J.Xolmo'minov "Jomiy hakamligi: tasavvuf, kalom va falsafa bahslari" nomli maqolasida Nizomiddin Boharziy Jomiyning hayoti va faoliyati, maqom va martabalarini, buyuk zamondoshlari bilan munosabati haqida "Maqomati Jomiy" nomli asar yozgani hamda unda muallif 109 ta mavzu xususida ma'lumotlar bitganini gapirgan. U Jomiy hakamligini qilgan yoki o'z nuqtayi nazarini bildirgan o'rinlardan biri sifatida, ya'ni "Naqdi nazari Jomiy dar borai shi'iyoni ro'zhor (Jomiyning davr shi'iyolari haqidagi tanqidiy qarashlari)" deb sanab ko'rsatgan.

Jomiy shialarning dasturlarini man etadi va hukmdor ham shia jamoasiga qahr ko'rsatadi. Xutba odatdagi dastur bo'yicha tayin qilinadi. Yana kitobning "Mozandaron tomon yurishga Humoyun otlanishi va Mirzo Abul Muzaffar Yodgor Muhammad hujumi zikri" faslida Jomiyga Samarqanddan Xoja Ahror Valiydan maktub keladi. Maktub mazmunida Sulton Husayn Boyqaro hal etishi mumkin bo'lgan muammo bayon qilingan edi. Jomiy mazkur maktub bilan hukmdor huzuriga borganda saroyda bo'layotgan ziyofat ustidan chiqadi va she'r yozib qoldiradi. Sulton ham javob tariqasida she'r bitib jo'natadi va yana

Jomiy javob she'r yozib yuboradi. Xullas, hukmdor tomonidan Jomiy iltimosi ijobiy hal qilinadi. Demak, muallif asarda yuksak e'tirof bilan tengquri buyuk Jomiy - faqih, shoir, jamoat arbobi sifatida tilga olgan.

Abdurahmon Jomiy haqida muhim ma'lumotlarni Davlatshoh Samarqandiy "Tazkirat ush-shuaro"da yozgan. Jomiyning tug'ilgan yeri, tabiatida ilm va fazilat izlashga moyilligi, buyuk mutafakkirligi, o'qishi, ta'sirli asarlari, o'z davri shoir-adiblariga yoki orif-so'fiy shayxlarga e'tibori, tarbiyasi, tasavvufda oliy maqomga erishishi, himmati masalasi asarda yaxshi yoritilgan. Samarqandiy asar xotima qismini "olti fozilning... holat va maqomatlari hamda she'rlarini tahririga payvasta qildim", ya'ni u o'ziga zamondosh bo'lgan olti nafar fozil insonlar haqida ularning nomlari bilan bog'lab alohida fiqralar bitgan. Shulardan biri buyuk Jomiy haqidagi fiqradir. Mazkur tazkiraning Turkiya nashrida turk tiliga qilingan tarjimasini to'liq nashr bo'lgani uchun tazkirada alohida fiqra yozilgan qalam ahli qatori xotimada Jomiyga bag'ishlangan fiqra ham to'liqroq aks etgan. Tazkiraning "Nuriddin Abdurahmon Jomiy" fiqrasiga murojaat qilsak: "Mavlononing asli va tug'ilgan joyi Jom viloyatida, vatani Xarjerd qishlog'i, o'sgan va kun kechirgan yeri esa poytaxt Hirotdir. Dastlab ilm-u adab o'rganish bilan mashg'ul bo'ldi va bora-bora zamon ulomalarining yetakchisiga aylandi. Tabiatida ilm-u fazl yanada yuqoriroq darajaga ko'tarilishini istadi. (Shuning uchun) toliblik dardi oliy himmati etagidan tutdi. Muridlik qo'lining ma'rifat egasi, shayxulislom, haqiqat izlovchilar qiblagohi... shayxlar shayxi, ulug' xoja Bahouddin Naqshband janoblarining... murid va xalifalaridan sayyid Sa'diddin Muhammad Koshg'ariyga berdi. Mavlono(Abdurahmon Jomiy) birmuncha vaqt mavlono Sa'diddin(Koshg'ariy)ning huzurida turli va munosib xizmatlar qildi, riyozat, mujohidlik, faqirlik-u sulukdan to'la martaba hosil etdi. Ul buzrukvorning muborak xizmatlari barakoti bilan mavlono tasavvufda oliy maqomga erishdi... Mavlono akobir-u fuzaloning she'r va qasidalariga ko'p ajoyib (va) ma'rifatli javob aytgan, ularning hammasini ushbu tazkirada keltirish(ancha) mushkuldir...". Muallif Jomiy shoir va adib sifatida tilga olgan ekan, nazmiy va nasriy asarlarining ko'pligiga ishora qiladi hamda o'z fikrlari isboti va kitob bezagi uchun Amir Xus-

ravning "Bahr ul-abror"ga javoban mavlono qasidasining yaxshiligi, "Nafahot ul-uns" tazkirasini, shayx Nizomiyga javoban bitilgan "Mahzan ul-asror" bir necha manzum kitob, muammo va tasavvufga oid birmuncha asarlari borligini ta'kidlaydi. Xulosani esa "Mavlono azaliy inoyat va abadiy hidoyat bila kela-jakda ham bu hikmat-u ma'rifat daryosi mavjlaridan vujud sohiliga durdonalar to'kkusidir", deb yakunlaydi.

Jomiyning kichik zamondoshlaridan biri adib Zayniddin Vosifiy o'z davri voqealarini aks ettirib "Badoye ul-vaqoye" kitobini Hirotda boshlab, Toshkentda yakunlagan. Mazkur kitobda Jomiy olami haqida ham tarixiy voqea-hodisalar aks etgan. U asarda ibratli "Xamsayi mutahayyira hikoyati" nomli fasl yozgan va unda Jomiy rahbarligida to'rt nafar buyuk olim bilan Hirotda madrasalarining mudarrisilari faoliyatini taftish qilishi haqidagi muhim voqealarni bayon qilgan. Bu jamoat Muhammad Jojarmiy, Abdurahmon Jomiy, Kamoliddin Shayx Husayn, Shamsiddin, Mavlono Dovud, Mu'in Tuniy kabi olimlardan iborat bo'lib, ular adolat va rostlik bilan madrasa faoliyatini tekshirishi xususida adib shunday yozadi: "Munavvar ra'yingiz ma'lumi bo'lsinki, bu olijanob silsilaning boshlig'i... mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiydir. Biri mavlono Kamoliddin Shayx Husayn, biri mavlono Shamsiddin, kashf sohibi, yana biri mavlono Dovud, yana mavlono Mu'in Tuniy besh kishidir. Biror aql egasi bularga oltinchi bo'lib qo'shila olmadi".

Jomiy haqida qimmatli ma'lumot yozgan o'zbek adiblaridan biri Bobur mirzodir. U "Boburnoma"da asar xarakteridan kelib chiqib buyuk Jomiy haqida yetti muhim tarixiy ma'lumotlarni bitgan. Bobur 1506-yili Hirotda bo'lar ekan, Jomiy maqbarasini ziyorat qilib u qurdirgan madrasada bo'lgan va madrasada yashab Jomiyning "Nafahot ul-uns" asariga sharh yozayotgan shayx Mavlono Abdulg'ofur Loriy bilan suhbat qurgan. Bobur ma'lumotlarida Jomiyning buyuk siymosi, ba'zi asarlarining nomi, mazmun-mundariyasi xususida o'z fikrlarini aytib o'tgan.

B.Rajabova Bobur keltirgan ma'lumotlarni o'rganib, "Jomiy va Bobur" maqolasi xususida batafsil to'xtalgan. Bobur "Muxtasar" asarining 5-, 8-vaznlari-da Abdurahmon Jomiyning masnaviy usulida yozilgan asarlarini tilga olgan: "Bu vaznda dag'i masnaviy ko'ptur, ul jumladin shayx Nizomiyning "Layli-yu Majnun"i va xoja Xusravning "Majnun-u Layli"si va mavlono Abdurahmon Jomiyning "Layli-yu Majnun"i va Mir Alisher Navoiyning "Layli-yu Majnun"i va Abdulla Hotifiyning "Layli-yu Majnun"i".

Tojikistonlik professor E.Shodiyev "Zahiriddin Muhammad Bobur" risolasi haqida "Bobur va tojik adabiyoti" nomli faslida Boburning fors-tojik adabiyoti namunalari bolaligidan katta zavq bilan o'qib-o'rgangani haqida yozar ekan, "Boburning "Aruz risolasi" asarini XIV-XVI asrlar fors-tojik adabiyotiga doir yirik bir antologiya deb atash mumkin" deb yuksak baho beradi. Fikrlarini davom ettirib: "Uasardamasnaviylar xususidaso'zyuritganda... Abdurahmon Jomiyning "Subha", "Haft avrang", "Xiradnomayi Iskandariy" kabi asarlari ustida to'xtalib o'tadi va ulardan xilma-xil misollar keltiradi", degan ilmiy tezisni olg'a suradi. Bobur "Aruz risolasi" (bu asar "Muxtasar" nomi bilan ham mashhur. Uni 1971-yili taniqli boburshunos olim Saidbek Hasan nashrga tayyorlagan)da Jomiy asarlaridan ko'plab baytlar keltirgan. Demak, Bobur Jomiyning ham lirik, ham nasriy asarlarini yaxshi bilgan.

(Davomi 6-betda.)



# XV-XVI ASRGA OID ADABIY-TARIXIY MANBALARDA ABDURAHMON JOMIY TASVIRI

(Davomi. Boshi 4-, 5-betlarda.)

Boburdan keyin Jomiy haqidagi muhim ma'lumotlarni Muhammad Haydar mirzoning "Tarixi Rashidiy" kitobida o'qiydiz. U mazkur asarining to'qqizinchi faslida muallif otasi Muhammad Husayn Ko'ragonning Xurosonga ketishi bilan bog'liq voqealar bayonida temuriylar davlat boshqaruvida bo'lgan Xuroson hukmdori Husayn Boyqaro zamonida yashagan sudurlar, olimlar, shoirlarni tilga olgan uch lavhada Jomiy bilan bog'liq xabarlarini o'qiydiz. Jomiy Husayn mirzo zamonida yashagan tasavvufning buyuk vakili sifatida "Musulmon dunyosining nuri va shayxulislomi Hazrat Mavlono Abdurahmon Jomiy (Olloh rahmatiga olgan bo'lsin) zikrida" yodga olgan. Muallifning Jomiyning ulug' shaxsiga bo'lgan ixlosi zikr sarlavhasida ham yaqqol ko'rinadi. Asarning shoirlar bilan bog'liq ma'lumotida Jomiyning "Nafahot ul-uns" tazkirasini, fasohatli lirikasi, besh baytli g'azalining yozilish sharti va g'azal matni va mutafakkirning shogirdi mavlono Abdulg'ofur Loriyning "Nafahot ul-uns" tazkirasiga bitgan o'ttiz fasldan iborat sharhi va muallif o'zining hayrati xususida to'liqlanib yozganini ko'ramiz.

Muhammad Faxriy Hiraviy Navoiyning "Majolis un-nafois" asarining fors tiliga tarjimoni hisoblanishi bilan birga, u Hirot tazkirachilik maktabining davomchisi sifatida "Ravzat us-salotin" tazkirasini yozgan va unda XVI asrgacha bo'lgan davrda Movarounnahr, Xuroson, Iroq, Hindiston, Rumda yashab ijod qilgan salotin va amirlarning ijodi va ijodiy merosi xususida qimmatli ma'lumot va muhim xabarlar bitgan. "Va Rudakiy nazm ahlining sarxayli..." deb tazkirani Rudakiy to'g'risidagi fiqra bilan boshlagan. Ko'rinadiki, Hiraviy ham fors tilida yozilgan tazkiralar kabi ilk fiqrani Rudakiyga bag'ishlagan va Amir Nasrni Marvdan Buxoroga chorlab yozgan qasidasi sabab ko'plab in'omlarni qo'lga kiritganini gapirgan. Qasidadan namuna tariqasida 10 baytni tamsil qilib keltirgan. U fiqrada "fors shoirlarining muqaddami" bo'lgan Rudakiyni Amir Nasr bin Ahmad Somoniy ko'p in'omlar bilan siylaganini xususidagi ma'lumotiga tamsil qilib Unsuriy qasidasidan bayt keltiradi: "Mavlono Abdurahmon Jomiy "Silsilat uz-zahab" kitobida Rudakiyning go'zal ta'rifini aytgan". Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Jomiy Rudakiy to'g'risida "Aruz risolasi", "Bahoriston" kabi asarlarida ham ma'lumot bergan va bular xususida B.Rajabova "Rudakiy va Jomiy" nomli alohida maqola yozgan.

Tarixiy-adabiy manbalarda Husayn Boyqaroning nabirasi Mo'min mirzoning she'r yozganligi haqida ma'lumotlar uchraydi. Alisher Navoiy "Majolis un-nafois"ning yettinchi majlisida 21 nafar sohibdevon, she'r ijod qilgan temuriyodalar haqida fiqra shaklida xabarlar yozgan. Ammo Navoiy bu majlisda Mo'min mirzoni tilga olmagan. O'qib-o'rganishimizga ko'ra, tazkiraning Amir Temur va temuriylarga bag'ishlab yozgan faslida Mo'min mirzoning she'r yozishi va aynan u katta zamondoshi, ulug' Abdurahmon Jomiyning g'azaliga muxammas bog'lagani haqida qimmatli ma'lumot bitgan. Muhimi, u Mo'min mirzo yozgan muxammasning to'liq matnini tamsil qilib keltirgan: "Muhammad Mo'min mirzo Badiuzzamon mirzoning o'g'li edi. Sulton Husayn mirzo avlodlarining otasi bilan u barcha muxolifliklari uning nohaq xuni vositasi sababli bo'ldi", deb uning fors tilidagi qit'asini va meni taqdir qo'llamadi, shu sababli do'stlarim dushman bo'ldi, ular muzaffar bo'ldi, degan mazmunni be-

ruvchi matla' va Jomiy g'azaliga muxammas bog'lagan "mazmundor nazmi mashhurdir" deb muxammas matni to'liq keltiriladi. Demak, Faxri Xiraviyning yozishicha, muxammas o'z davrida mashhur bo'lgan. Shuning uchun tazkira muallifi uning tazkirasini kiritishga jur'at etgan. Ma'lumki, Mo'min mirzoning an'atasi davom etib Jomiyning fasohatli g'azallariga juda ko'plab muxammaslar yozilgan. Shulardan biri Muqimiy Jomiyning "mekuni yo ne" ("ado qilasanmi – yo'qmi) radifli g'azaliga yozgan muxammasidir.

O'rganishimizga ko'ra, Faxriy Hiraviydan keyin Nuran Maxdum to'g'risida baland so'zlarni buxorolik tazkiranavis Hasanxo'ja Nisoriy bitganini bildik. Uning "Muzakkiri ahbob" ("Do'stlar yodnomasi") nomli tazkirasini adabiyotshunoslikda eng ishonchli va muhim manbalardan hisoblanadi. Jomiy ijodini yaxshi bilgan Nisoriy tazkirasida 288 nafar qalam ahli haqida ma'lumot, xabar, mulohaza yozgan va fazilati, ijodidan namunalar keltirgan. Ma'lumotlari sirasida Jomiy nomi, nasabi va hasabi, ota-onasi, tug'ilgan, ta'lim olgan manzil-makoni, Hirot madaniy muhitida tutgan o'rni, ijodining o'ziga xos yuksak nuqtalari va vafoti haqida xabarlar yozgan. U Xoja Abdulg'ofir Loriyni ham yodga olgan.

Mutribiy Samarqandiy 1605-yili yozgan "Tazkirat ush-shuaro" tazkirasida Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy maktabi an'alarini davom ettirib, badiiy-g'oyaviy jihatdan yetuk, rang-barang mavzu va turli janrlarda asar yaratgan 340 nafardan ziyod shoirlar haqida nodir ma'lumotlar bergan. Muhimi, u Payraviy, Vasiliy Marviy, Yatimiy Hiraviy, Sho'xiy Buxoriy, Zavqiy Miyonkoliy kabi shoirlar fiqrasida Abdurahmon Jomiy nomini tilga olgan. Buxorolik shoir Payraviy Jomiyning ikki asari ta'sirida kitoblar yozgani haqida shunday ma'lumot bergan: "Yaxshi ta'bi bor edi. Hazrat maxdumiy xo'jasta farjomiy Abdurahmon Jomiyning "Yusuf va Zulayho" va "Tuhfat ul-ahror" kitoblariga ergashib asarlar yaratgan hamda ilmlar bo'yicha har xil mavzularda risolalar bitgan...". Shoir Vasiliy Marviy Nuran Maxdumning "Bahoriston" asaridan aql va dinga ziyon beruvchi ichkilik ichishni qoralab yozgan hikoyat hamda she'rni tamsil qilib keltirgan. Tazkirada shoir Yatimiy Hiraviy Hirotida Abdurahmon Jomiyning nurga to'la mozori yonida mujovirlik bilan umr kechirishi va Abdulloxon Hiroti istilo etgandan so'ng u Balxga ketgani va u yerda vafot etgani haqida yozgan. Mutribiy Samarqandiy shoir Sho'xiy Buxoriyning Hasanxo'ja Nisoriy huzurida ilm o'rganayotgani xususida xabar bitar ekan, uning Abdurahmon Jomiyning she'rshunoslikka doir muhim manba bo'lgan "Risolay qofiya" risolasini yod olayotganini ham aytib o'tgan. Shoir Zavqiy Miyonkoliy she'rlar yozish asnosida Abdurahmon Jomiyning "Yusuf va Zulayho" asari uslubida "Noz-u niyoz" nomli kitob bitgani va asar xoqon Vali Muhammadxonga ma'qul kelib, u shoirga yaxshigina siylov mukofot berganini gapirgan. Yana tazkirada Mutribiy "Tazkirat ush-shuaro"da Samarqandning Oqsaroyida Abulxayr Sulton bilan suhbatlashgani va Jomiyning ramazon hayitiga bag'ishlab yozgan g'azalini o'qib bergani borasida qiziqarli hayotiy voqeani keltirgan va g'azalning to'liq matnini ilova qilgani tahsinga loyiq bo'lgan:

"Kamina ramazon hayiti kuni Samarqandning Oqsaroyida Abulxayr Sultonning qutlug' suhbatlariga yetishganman. – Hayitlik g'azal aytdingmi? – deb so'radilar o'shanda. Bunday g'azal yozmaganim uchun juda qiyin ahvolda qolib, uzr so'rashga tushdim va "bu bandaning" aytganlari baribir hazrat salta-

natpanohning humoyun suhbatlariga loyiq bo'la olarmidim? Agar vojib-ul i'zon, ya'ni hamma bajarishi shart farmon sharafini topsam, hazrat haqoyiq panohiy, xo'jasta farjomiy Abdurahmon Jomiy she'rlaridan bir hayitlik g'azalni hazratlarining sharofatli arzlari yetkazgan bo'lardim, – dedim xijolatpazlikdan chiqishga urinib. – Qutulishning zo'r yo'lini o'ylab topding-a! – dedilar Sulton tabassum qilib. Shundan so'ng she'r o'qishga ruxsat olib, ushbu latif g'azalni sharif e'tiborlariga havola qildim".

Faxruddin Ali Safiy "Rashahot ayn-ul hayot" kitobini Xo'ja Ahror Valiyga bag'ishlagan. Fors tilida yozilgan asar O'rta Osiyodagi siyosiy-ijtimoiy va ma'naviy hayotni o'rganishda qimmatli manbalardan biri. Kitob domla Xudoybergan tomonidan XIX asrda Xorazmda eski o'zbek tiliga tarjima qilingan ushbu nusxasidan mazkur kitob nashrga tayyorlangan. Asarda Movarounnahr va Xurosonda yashab, ijod qilgan ko'plab mashoyixlar, olimlar, davlat arboblari, mutafakkirlarga ham alohida fasllar bag'ishlangan. Shayx hamsuhbatlaridan bo'lgan Abdurahmon Jomiyga salmoqli sahifa ajratilgan. Unda Jomiyning tug'ilishi, ilm egallashi, fazli kamol ahliga qo'shilishi, Samarqand va Hirot madrasalarida olgan tahsili, Mavlono Saduddin Koshg'ariydan tasavvuf ilmini o'rganishi, naqshbandiya tariqatiga yo'l tutishi, uning hijoz – haj safari va u haqida 10 rashhaning berilishi va Jomiyning tartibli, ibratli odatlari, uning vafoti tarixi zikr qilingan. Otasini ustozim deb qayd etgan va bolaligida aqlini otasi to'ldirganiga urg'u bergan: "Va biz haqiqatda otamizning shogirdi tururmizkim, tilni ondin o'rgandik". Asarlaridan "Nafahot ul-uns" esga olingan. Qizig'i shundaki, kitobda Jomiydan keyin uning sodiq shogirdi Mavlono Abdulg'ofur Loriy haqida alohida bob yozilgan. Mana shu bobda ham Jomiyning sharaflil nomi va uning "Nafahot ul-uns", "Sharhi Mullo", "Silsilat uz-zahab", "Xiradnomayi Iskandariy" singari asarlari tilga olingan.

Husayn Boyqaro Jomiy va Navoiy kabi ko'plab iste'dodlarni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlagan va o'z davrining zabardast shoir, adib, olim, muarrix, musiqachi, xattot, naqqoshlari xuddi shu zamonda faol ijod qilishgan.

Xullas, maqolada Abdurahmon Jomiy haqida ma'lumot, xabar yozilgan 20 ga yaqin tarixiy-adabiy manbalar hamda buyuk mutafakkirning qalamiga mansub ayrim asarlar o'rganildi. Ma'lum ma'noda "Jomiy va o'zbek adabiyoti" masala va muammosi ochiqlangan. O'rganilgan kitoblarda Jomiy faqat daho shoir, adib sifatidagina emas, balki uning adabiyotshunos olim, filosof, faqih, so'fiy, jamoat arbobi sifatida ham tilga olingani aytib o'tildi. Navoiy va Jomiy maktabining ta'sirida badiiy adabiyotga kirib kelgan shoir, adiblarning asarlariga ham murojaat qilingan hamda an'ana va adabiy ta'sir masalasi yoritilgan. XV–XVI asrga oid manbalarda Abdurahmon Jomiyning ibratli hayot yo'li, samarali ijodi, boy ijodiy merosi, fazilat-lari, shoir, adib, olim, faylasuf, faqih, jamoat arbobi, mehribon ota sifatidagi olmos qirralari tasvirlanganiga amin bo'ldik. Jomiyning adabiy va tasavvufiy maktabi an'analari davom etganini bildik. Ma'lum ma'noda jomiyshunoslik tarixi bilan tanishtirishga harakat qildik. Ammo shunga qaramay biz ushbu davrlarda jomiyshunoslik bilan bog'liq masala va muammolarni to'liq o'rgandik, deb ayta olmaymiz va keyingi tadqiqotlarimizda buni davom ettiramiz degan umidimiz yo'q emas.

Burobiya RAJABOVA,  
O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti  
yetakchi ilmiy xodimi, filologiya fanlari nomzodi



# GLOBALLASHUV JARAYONIDA O‘ZBEK ADABIYOTINING TUTGAN O‘RNI VA PSIXOLOGIK TA‘SIR DARAJASI

**XXI asrda insoniyat ilgari kuzatilmagan jarayonlarga duch kelmoqda. Yangilanish, axborot oqimining kengligi, internet tarmoqlari ta’siri, jahon madaniyatlari o‘rtasidagi doimiy aloqa – bularning barchasi globallashuv jarayonini anglatadi. Shu jarayonda har bir millat o‘zining ma’naviy qadriyatlarini, adabiyoti va ruhiy dunyosi bilan dunyo sahnasiga chiqmoqda. O‘zbek adabiyoti ham ana shunday yuksak ruhiy boylik sifatida nafaqat milliy, balki umuminsoniy miqyosda ham o‘ziga xos ahamiyat kasb etmoqda.**

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev globallashuvning insoniyatga yangi imkoniyatlar bilan birga, kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarganini ta’kidlab, milliy o‘zlik va ma’naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora ortayotgani, tahdidlar, ayniqsa, yoshlar ongiga iste’molchilik kayfiyatining singdirilishi orqali namoyon bo‘layotganini alohida ta’kidlaydi. Shuningdek, davlatimiz rahbari adabiyot, san’at va madaniyatning jamiyatdagi o‘rniga yuqori baho berib, “Adabiyot, san’at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi” deydi. Bu fikrlar adabiyotning jamiyatdagi ruhiy va ma’naviy barqarorlikni ta’minlashdagi muhim rolini ko‘rsatadi.

O‘zbek adabiyoti o‘zining yuksak ma’naviy zamini, badiiy mahoratga boy uslubi, inson ruhiga ta’sir etuvchi falsafiy qarashlari bilan ajralib turadi. Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov singari mutafakkirlar asarlari nafaqat adabiy, balki ruhiy-tarbiyaviy ahamiyatga ham ega.

Globallashuv jarayonida jamiyatdagi axloqiy inqirozlar, yoshlar ongida mafkuraviy bo’shliq, o‘zligini anglashda murakkabliklar yuzaga kelmoqda. Mana shunday pallada adabiyotning ta’siri yanada muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek adabiyotida holatlar jonli ifoda etiladi. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanidagi Otabek obrazi, Cho‘lpon she’rlaridagi erkinlik iztiroblari, Abdulla Oripovning vatanparvarlik ruhi – bularning

har biri o‘quvchida muayyan his uyg‘otadi. Bu esa adabiyotning yuqori psixologik ta’sir darajasidan dalolat beradi.

O‘zbek adabiyotining yangi bosqichi – globallashuv va modernizm kuchaygan bir davrda – Nazar Eshonqul nomi o‘ziga xos badiiy dunyoqarashi, falsafiy teranligi va ruhiyatga chuqur kirib borishi bilan ajralib turadi. Uning asarlari o‘zbek modernistik adabiyotining yorqin namunalaridan biri bo‘lib, bu adabiy yo‘nalishning psixologik ta’sir kuchini amaliy jihatdan namoyon qiladi.

Modernizm adabiyotda an’anaviy tasvir usullaridan voz kechish, inson ongi, qalbida muammolarni tahlil qilish, murakkab ichki kechinmalarni ochib berish bilan tavsiflanadi. Nazar Eshonqul bu yo‘nalishdagi yirik namoyandalardan biri sifatida o‘zbek adabiyotiga o‘ziga xos psixologik dramatism olib kirdi. Uning “Qirq besh daqiqa”, “So‘nggi odam”, “Uch ishq” kabi asarlari zamonaviy inson ichki olamining notinch, iztirobli, ziddiyatli manzaralarini tasvirlaydi.

Yozuvchi asarlarida voqealar ketma-ketligidan ko‘ra, ichki kechinmalar, ong oqimi, insoniy anglash va yolg‘izlik mavzulari ustuvorlik qiladi. Har bir obraz o‘ziga xos falsafiy yuklama bilan beriladi – ular orqali muallif inson ruhiyatidagi kemtikliklar, ma’naviy tanglik, haqiqat izlovchi qalb iztirobini ko‘rsatadi.

Nazar Eshonqulning badiiy uslubi – tilidagi ixchamlik, ramziy qatlamlar, orzu va haqiqat orasidagi noaniqliklar, aforistik fikrlar bilan ajralib turadi. O‘quvchi uning yoziqlarini o‘qir ekan, oddiy voqelik pardasi

ostida yashiringan ruhiy muammolar bilan yuzma-yuz keladi. Bu esa o‘quvchini anglash va o‘zini kashf etishga undaydi.

“Tobut” hikoyasida bosh qahramonning ichki dunyosi, o‘z-o‘zini anglash jarayoni va ruhiy iztiroblari chuqur tasvirlanadi. Hikoyada majoz va tragik obrazlar orqali insonning hayotiy muammolari va ichki ziddiyatlari ko‘rsatib beriladi.

“Qora kitob” qissasi o‘zining noodatiy badiiy talqini bilan ajralib turadi. Asarda voqealar ketma-ketligidan ko‘ra, qahramonning ichki kechinmalari, ong oqimi va ruhiy holati tasvirlanadi. Bu uslub o‘quvchini asar voqealariga emas, balki qahramonning ichki dunyosiga e’tibor qaratishga undaydi.

Nazar Eshonqul hikoyalarida badiiy matnning assotsiativ maydoni keng qo‘llaniladi. Yozuvchi verbal assotsiativ birliklar orqali o‘quvchining ongida turli tasavvurlar va his-tuyg‘ular uyg‘otadi. Bu uslub orqali inson ruhiyatining noaniq va murakkab jihatlarini yoritiladi. Shuningdek, Nazar Eshonqul asarlaridagi inson – bu nafaqat jamiyatning bir bo‘lagi, balki borlik va yo‘qlik, ma’naviyat va moddiy o‘rtasida adashgan zot borki, u doimo izlaydi, savol beradi, iztirob chekadi. Shu tarzda yozuvchi o‘quvchini nafaqat kuzatuvchi, balki ruhiy jarayonlarning bevosita ishtirokchisi-ga aylantiradi.

Nazar Eshonqul bilan bir davrda ijod qilayotgan zamonaviy modernist yozuvchilar Xurshid Do‘stmuhammad, Ortiq Hojimiyning ayrim asarlarida ham shunday psixologik chuqurlik, ichki dunyo murakkabligi kuzatiladi. Biroq Nazar Eshonqul asarlari bu jihatdan yanada keskinroq, falsafiy jihatdan murakkabroq va estetik jihatdan noan’anaviyrog‘idir.

Uning qahramonlari hayotga emas, hayot mazmuniga savol beradi. Ular jamiyatda emas, ko‘proq o‘z ongining ichida yashaydi. Bu esa adabiyot orqali inson psixologiyasini o‘rganish, ruhiy portretlar yaratish imkonini beradi.

Nazar Eshonqul asarlari o‘zbek modernistik adabiyotida psixologik tasvir va inson ruhiyatining chuqur tahlili bilan ajralib turadi. Yozuvchining noodatiy badiiy uslubi

va assotsiativ tasvir vositalari o‘quvchini qahramonning ichki dunyosiga chuqur kirib borishga undaydi. Bu esa asarlarning psixologik ta’sir darajasini yanada oshiradi.

O‘zbek adabiyotida badiiy psixologizmning rivojlanishi, ayniqsa, mustaqillik yillarida sezilarli darajada oshdi. Globallashuv jarayonlari kontekstida publitsistik uslub ham sezilarli o‘zgarishlarga yuz tutayotganining guvohi bo‘lib turibmiz. Jurnalist Muqaddas Isroil bu borada shunday deydi: “*Gazeta tili ijtimoiy voqelik, jamiyat tuzilishi, qadriyatlar va madaniy xususiyatlarni aks ettirishini diskursiv tahlilga tortishi zarur*”.

Bugun o‘zbek adabiyotshunosligida bir qator olimlar zamonaviy adabiy jarayonlar, badiiy psixologizm, qiyosiy adabiyotshunoslik kabi yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib bormoqda. Jumladan, Qoraqalpoq davlat universiteti magistranti Xurshida Ergasheva ham hozirgi o‘zbek nasrida shakliy-uslubiy yangilanishlar va o‘zgarishlar mavzusida izlanish olib boryapti. U, xususan, Azizbek Norov hikoyalarida yangi sujetlar, detallar, til va uslub elementlarini tahlil qilgan.

Shahrisabz davlat pedagogika instituti magistrantlari Madina Xolliyeva, E‘zoza Mahmudjonova o‘zbek yozuvchilari, xususan, Nazar Eshonqul va Nodir Normatov asarlari misolida psixologizmning o‘rni, psixologizm ortida inson taqdirining badiiy talqin etilishi kabi masalalar tahlili ustida ishlamoqda.

Xulosa qilib aytganda, globallashuv bu – inkor etib bo‘lmaydigan voqelik. Millat bu jarayonda o‘zining ruhiy ustuni – adabiyotiga tayanishi, uning psixologik ta’sir salohiyatidan unumli foydalanishi dardkor. O‘zbek adabiyoti bugun ham inson qalbiga ta’sir etuvchi, ma’naviyat ufqini kengaytiruvchi, milliy o‘zlikni mustahkamlovchi badiiy qudrat sifatida yashamoqda. Demak, u globallashuv sharoitida faqatgina sinovdan o‘tmayapti, balki dunyo ma’naviyatiga o‘z hissasini qo‘shmoqda.

Manzura NOMOZOVA,

Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

## ORZUDAN HAQIQATGA: MENI MUALLIMLIKKA YETAKLAGAN ASAR

Rashod Nuri Guntekinning “Choliqushi” romani yozuvchining eng mashhur asaridir. Roman 1922-yili “Vaqt” gazetasining bir necha sonida bo‘lib-bo‘lib chop etilgan va birinchi marta 1923-yili kitob holda chiqqan. Yozuvchining o‘zgartirishlaridan keyin 1937-yili “Choliqushi” romani mukammal holga keltirilgan. Bu asar insoniylik, fidoyilik, muhabbat va haqiqat sari intilishga bo‘lgan qarashlarimni ham o‘zgartirdi.

“Choliqushi” ishqiy mavzuda yozilgan asar bo‘lishi bilan birga, o‘sha davr muammolariga mohirona tanqidiy yondashilgani, ijtimoiy hayot va tarix haqida lokal bilimlar bera olishi bilan ham muhim ahamiyatga ega. U Turkiyada yangi modern davrning boshlanishini ifodalagan qimmatli asar hisoblanadi. Romanning oxirgi bo‘limidan tashqari to‘rt qismi bosh qahramon Faridaning xotira daftari sifatida, uning tilidan hikoya qilinadi.

Romanning asosiy mavzusi – muhabbat. Farida uzoq vaqt mobaynida sevgisini tan olmay, Kamrondan nafratlanishini aytga-da, maktabda o‘qib yurgan paytlari ham, Onado‘luda ish izlab sargardon kezgan paytlari ham uni qattiq yoqtirardi. Faridaning uzoq vaqt muhabbatidan ayro qolishiga sabab

sevish va sevdirishni yetarlicha bilmasligidir. G‘ururi va sevgisi orasida muntazam kurashni to‘xtatolmagan Farida uzoq yil g‘ururining sevgisi ustidan qozongan g‘alabasidan azoblanib yashaydi. Onado‘luda kechgan yillari uni batamom o‘zgartiradi.

Xotira daftarinin oxirgi sahifalarida Farida yillar davomida hatto o‘zidan ham yashirishga urinib kelgan sevgisini nihoyat tan oladi: “Ha, nega endi aldashim kerak? Butun nafratimdan, isyonlarimdan, butun o‘sha bo‘lib o‘tgan noxushliklardan qat’i nazar, men sening bir parchang edim”.

Asar bosh qahramoni Farida – ilm yo‘lida barcha sinovlarga bardosh berib, muallimlikni hayotining mazmuni sifatida qabul qilgan jasoratli ayol. U asarda nafaqat bilim ulashuvchi, balki yosh avlodga hayot mazmunini anglatib bera oluvchi murabbiy sifatida gavdalanadi. “Hayot meni har qadamda sinovdan o‘tkazadi, lekin men taslim bo‘lmayman”, deydi u, barcha qiyinchiliklarga qaramay ta’lim berishda davom etarkan. U sevgi va orzularini qurbon qilgan holda jamiyatga xizmat qilishni tanlaydi. Bu fidoyilik menda muallimlik kasbiga nisbatan yuksak ehtirom uyg‘otdi. Muallimlik esa oddiy kasb emas...

Asarda Onado‘lu va u yerda yashagan insonlar hayotiga nazar tashlaganimizda yo‘qsillik, jaholat, yashash zavqidan

mahrumlik kabi holatlarga duch kelamiz. Farida bir muddat yashagan Zaynilar qishlog‘i tasvirlari – “yakkam-dukkam kulbalar”, “taxta uylar”, “cho‘ka boshlagan qop-qora vayronalar”, “u yer bu yerda tutab yotgan yong‘in xarobalari”, o‘quvchilarning achinarli ahvoli o‘sha davr haqiqatlarini ko‘z oldimizda namoyon qiladi.

### Muallimlik shunchaki bilim berish emas...

O‘zi ham muallim bo‘lgan yozuvchi roman qahramonini ham o‘qituvchi sifatida gavdalandirib, asarda ta’lim-tarbiya masalasiga alohida e’tibor qaratgan. Romanda an’anaviy ta’lim-tarbiya tushunchasi va yangi ta’lim berish shakli orasida kurash yuzaga keladi. Farida o‘quvchilarni ruhiy qo‘llab-quvvatlaydi va qizlar ta’limiga alohida e’tibor qaratadi. Insonparvar yondashuvlarni qo‘llash orqali o‘quvchilarga yashash zavqini beradi. Asarni o‘qish davomida bir haqiqatni angladim: muallimlik shunchaki bilim berish emas, balki yosh avlodning ruhiga mehr va g‘ayrat singdirish, ularning qalbidagi ezgulik uyg‘otishdir. Farida hayotining eng og‘ir lahzalarida ham: “Men uchun eng katta mukofot – bolalarning ko‘zlarida porlagan umid”, deya o‘zini rag‘batlantiradi.

“Choliqushi” nafaqat badiiy asar, balki juda ko‘plab insonlar, shu jumladan, mening ham qalbmida muallimlik kasbiga ishtiyoq uyg‘ota olgan ilhom manbayidir. Nazarimda, har bir inson hayotida unga yo‘lboshchi bo‘la oladigan shunday asarlar bo‘lishi kerak. Chunki aynan kitoblar bizni ulg‘aytiradi, orzular sari yetaklaydi va o‘z taqdirimizni yaratishga ilhomlantiradi.

“Choliqushi” – taqdir zarbalari, yuraklar imtihonining hikoyasi, qalb fidoyiligi va muhabbat sadoqatini sinovdan o‘tkazgan, orzular va iztiroblar o‘rtasida qanot qoqib, oxir-oqibat haqiqat va yurak chaqirig‘iga yetib kelgan tog‘ bulbulining dostonidir. Asar sevgi va muhabbatning hayot sinovlari, ijtimoiy me’yorlar va taqdir zarbalari oldida qanday shakllanishi va mustahkamlanishini ko‘rsatadi. Farida va Kamronning sevgi yo‘li murakkab sinovlar bilan to‘la bo‘lsa-da, ularning yuraklaridagi tuyg‘u vaqt va masofadan ustun keladi. Oxir-oqibat, haqiqiy sevgi g‘alaba qozonadi – chunki taqdir yengishi mumkin bo‘lgan hamma narsa sevgi oldida ojiz, u faqat his-tuyg‘u emas, balki fidoyilik, kechirish va sadoqat asosida barqaror bo‘ladi.

Mashhura QODIROVA,

TDPU “O‘zbek adabiyoti va uni o‘qitish metodikasi” kafedrasida dotsenti v.b.

# “Lison ut-tayr”ning she’riy tabdili xususida ikki og‘iz so‘z

Inson hayotining asosiy mazmuni o‘zligini qidirish yo‘lida kechadi. Azaldan bashoratlar, ekstrasenslarga ishonish, psixologlar bilan muloqotlar va shu yo‘nalishdagi kitoblarni o‘qish ortida ham inson ichki olamidagi uxlab yotgan o‘zligini topishga intilish yotadi.

Shuningdek, ko‘plab bitik va ilohiy manbalarda mutlaq uzlatga chekinib, tarkidunyochilik yo‘lini tutib, ibodat bilan mashg‘ul bo‘lishdan ko‘ra shakl va mazmun uyg‘unligiga intilish, qalb Yaratguvchida, amal esa qalbga muvofiq bo‘lishi, diniy va dunyoviy bilimlar, amallar uyg‘unligida yashash komillikka intilishning bir belgisi sifatida ta’kidlanadi. Bunda tarozini qanday tuta bilish – haqiqiy saodat. Ko‘zguga boqqan inson o‘zi istagan narsani ko‘radi. Ustoz Baxtiyor Mengliyev tomonidan amalga oshirilgan hazrat Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” asarining she’riy o‘girmasi, hech mubolag‘asiz, o‘zlikni kashf etishga yordam beradigan haqiqiy mayoq.

Yaratuvchiga yaqinlikni istagan inson yetti vodiyning har birida Uni topish sirini anglaydi. Zotan:

*Izlaganing magar noyob dur ekan,  
Topmaysan to dunyo  
g‘aming bor ekan.*

Ruhiyatida evrilish, ichki olamidagi kemtiklikni his qilgan kishi yetti vodiy orqali o‘tib, najot yo‘li, halovat kalitini topadi:

*Agar yuz ming quyosh  
g‘oyib bo‘lsa ham,  
Deysan charxdan  
bitta zarra bo‘ldi kam.*

*Singib ketsa mingta  
dengiz yerga gar,  
Yo‘qoldi de arzimagan qatralar.*

Muqaddas dinimizda “birodarlik” tushunchasi bor. Bugun ko‘pincha e‘tibor qilmaydigan, “men”imiz ustun keladigan davrda ushbu tushunchaning ulug‘vorligini his qilish baxtidan mahrummiz. Birodarlik – ezgulik, Haq yo‘lida birlashish, birodarga do‘stlik, hamdardlik, xayrixohlik nazari bilan qarash. Kitobning o‘ziga xos tarzda bayon qilingan jihati shundaki, tavhid, “Bir-u Bor” zotga iymon keltirish bilan birga, “birlik-birodarlik” tushunchasining ham go‘zal tarzda bayon qilinganligidir:

*Bu qiyin ish sen-la bo‘lsa yuzma-yuz,  
Birdan boshqa demoqlikka  
hech yo‘q so‘z.*


*Bir bo‘l, bir ko‘r, bir degin,  
bir tilagin,  
Mayl qilma bilmoq ikki neligin.*

Bugun insoniylik fazilatlarini qahatlashayotgandek, moddiy qadriyatga aylanayotgandek bir davrda yashamoqdamiz. Komillikka intilish – karyera qilish bilan adashtiriladi. Bu esa qalbning muqarrar halokati xavfini paydo qiladi. Asardagi hamd va na‘t, choryorlar haqidagi hikoyatlar qalbni pok tutishni va najot yo‘llarini anglatadi.

Har bir qushga xos fazilat-u nuqsonlar inson ichki olamidagi qarama-qarshiliklar, olam va odam ziddiyatlari, qalbni o‘rtaydigan, aqlni mushohada qilishga undaydigan o‘zligimizga ko‘zgu tutadi.

Eng muhim jihati, o‘qiganlarimiz Robin Sharma, Deyl Karnegi, Jeyms Klir, Ronda Bern, Valeriy Sinelnikov singari jahoniy xaridorgir asarlar mualliflari qarashlarida aks etgan tavsiyalarining barchasi shu kitobda sharqona va pandona, ommabop usulda bayon etilgan. Navoiyni tushunish – Haq hikmatini anglash. Ammo uni har kim ham, ayniqsa, yosh avlod tushuna olmasligi yoki tushunishga mutlaqo harakat qilmasligi – rost gap. Virtuallashgan olamda real borliqda yashash, insoniy e‘tiqodlari, millat ma’naviy qiyofasini saqlab qolish uchun katta kuch, harakat zarur. Ushbu she’riy o‘girma – haqiqiy xazinaning kaliti, insoniylik, ma’naviyat, ma’rifat borasidagi muammolarimiz yechimi. Eynshteyn bola aqlli bo‘lishi uchun unga ertaklar o‘qib berish zarurligini aytib o‘tgani haqida o‘qiganmiz. Ammo bolani, har qanday insonni chin saodat va komillikka yetishtiruvchi boylik ana shu “Lison ut-tayr” deb bemalol ayta olaman.

Navoiy asarlarini ko‘p o‘qiganman. Ammo tushunishga harakat qilish ortiqcha zo‘riqishni keltirib chiqargan. Asosiy mag‘zini chaqa olish esa murakkab. Ustozning kitoblarini(shunday deyishga to‘la asos bor) o‘qib, men shu vaqtgacha Navoiyni tushunmaganimni angladim. Tabiiy ofat, iqtisodiy inqiroz va talofatlar xavfi yil o‘tgan sari oshib bormoqda. Shu bilan birga, biz ko‘rmaydigan oxiri ayanchli ma’naviy tanazzul



yoqasiga borish ham insoniyatga katta xavf solmoqda. O‘zimizni, oilamizni, farzandlarimizni, birodarlarimizni ushbu halokatdan qutqarib qolish uchun har birimizdan harakat talab qilinadi. “Lison ut-tayr” esa bizga yo‘l ko‘rsatuvchi mayoq bo‘la oladi.

Menda katta vakolat yo‘q, imkonim bo‘lganda, ushbu kitobni har oila, har inson o‘qishini majburiy qilardim. Ta’limda axloqqa oid har bir tadrijiy darslarni shu kitob asosiga qurish rejalarini ishlab chiqardim. Lekin oddiy inson sifatida aytamanki, barchamiz o‘qishimiz shart bo‘lgan kitoblardan biri – aynan shu kitob. Zimmamizga ilm o‘rganish va o‘rgatishdek ezgu, mas’uliyatli ish – ne‘mat berilgan. Chinakam olim orifidan ustun(bu haqda rivoyat bor). Chin olimlikka intilar ekanmiz, hammamiz o‘qisak, o‘z fikrlarimizni bildirsak, o‘zimiz anglamagan jihatlarini birgalikda anglasak, biz ham Ustoz boshchiligidagi “SEMURG”ga aylana olishimizga ishonaman!

**Kamola MUSULMONOVA,**  
filologiya fanlari bo‘yicha  
falsafa doktori

## Taassurot

# “Lison ut-tayr”ni anglash – saodat

Bugun insonlar baxt izlab turli yo‘llarni sinab ko‘rishadi – motivatsion kitoblarni o‘qiydi, turli psixologik mashg‘ulotlarga qatnaydi. Biroq ko‘pchilik baribir istagan xotirjamligini topolmaydi. Chunki ular tashqi yutuqlarni ichki barqarorliksiz, ma’naviy bo‘shliq evaziga qozonishga harakat qilishadi.

Natijada moddiy jihatdan yuqori darajaga chiqsa ham, qalbida nimadir yetishmayotgandek tuyuladi. Shu insonlar qatori men ham qalb xotirjamligini izlab turli kitoblarga murojaat qildim, bu Baxtiyor Mengliyev tomonidan moslashtirilgan “Lison ut-tayr”ni o‘qimagunimcha davom etdi.

Asardagi qushlarning sayohati bilan birga mening ham ichki sayohatim boshlandi. Qushlar singari o‘zimdagi cheklov, qo‘rquv va istaklarimni anglab yeta boshladim:

**Tovus** – shuhratga intilib, hayotning asl ma’nosidan uzoqlashgan inson;

**Bulbul** – hissiyot va muhabbat girdobida qolgan qalb;

**Kaklik** – dangasalik, qo‘rquv va qulaylikni tark eta olmaydigan odam...

Bugungi insonlar ham shu holatda – har kimning qalbida tovus, bulbul yoki kaklik yashaydi. Kimdir shon-shuhrat ortidan quvib, hayotning haqiqiy mazmunini unutadi. Kimdir faqat muhabbat va tuyg‘ular bilan band bo‘lib, rivojlanishdan to‘xtaydi. Kimdir esa qulaylik va xavfsizlik qobig‘idan chiqishga qo‘rqadi. Kitobni o‘qir ekanman, “**Men qaysi qushman?**” degan savolni qo‘ydim.

Zamonaviy inson sifatida muammolarim va ichki kechinmalarimning tahlilini “Lison ut-tayr” hikmatlarida ko‘ra boshladim. Demak, mumtoz asarlar nafaqat adabiy yodgorlik, balki zamonaviy inson uchun o‘zlikni anglashning yo‘l xaritasi ham bo‘lar ekan. Salkam olti yuz yillik donishmandlik, falsafiy va ma’naviy saboq zamonaviy formatda tushuntirilsa, zamonaviy inson muammolariga yechim bo‘lishi “yetti vodiy” talqinida o‘z aksini topgan.

Har bir davrning tafakkuri, tili, va albatta, o‘quvchisi bo‘ladi. Asl asarning mohiyati buzilmay, bugungi tafakkurga moslashtirilgan baytlar kishi qalbiga yaqinroq tuyuladi.

Asl matn:

*Kimsa bo‘ldi ishq aro tushkan dam o‘t,  
O‘tqa nekim tushdi bo‘ldi ul ham o‘t.*

Moslashtirilgan matn:

*Oshqlikdan kimga yetsa magar o‘t,  
Ajablanma, o‘tga tushgan bo‘lar o‘t.*

Asl matn arxaik tuzilishga ega, undagi jumalalar murakkab grammatik qurilmalar bilan berilgan, buning zamonaviy o‘quvchiga begona tuyulishi tabiiy hol. Moslashtirilgan matn esa asl matnning teran hikmatini saqlab qolgan holda jonli va ta’sirchan chiqqan. Nutq tabiiy, mantiqiy, ritmik tuzilgani va bugungi adabiy til me’yorlariga yaqinligi sabab tez qabul qilindi. Shuningdek, poetik tasvirlarning(ishq, o‘t), vaznning saqlanishi o‘quvchiga estetik zavq beradi.

Xullas, o‘quvchi mumtoz matnni tushunish uchun mumtoz asarlar lug‘atiga murojaat qilishga majbur emas. Chunki “Lison ut-tayr”ning hikmatlari uning tili va tafakkuriga moslashgan holda taqdim etilgan.

Hikmatni faqat o‘qish kerak emas, undan foydalanish muhim. Inson har doim hayot mazmunini anglashga intilgan. Chuqur hayot falsafasi singdirilgan “Lison ut-tayr” singari mumtoz asarlarning zamonaviy auditoriyaga moslashishi bugungi kun kishisi uchun o‘zlikni anglash yo‘lida qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois, mumtoz hikmatning zamonaviy talqinda taqdim etilishi hayotiy zaruratga aylanmoqda.

**Kamola SAIDOVA,**  
ToshDO‘TAU tayanch doktoranti

# “OSMONI FALAKLARDA”GI O‘YLAR

## yoki mardaklardan ogohlantiruvchi asar

**O**‘ttiz yoshimgacha yo juda sodda bo‘lganman, yoki taqdir meni siylab, balki ayab bunday odamlarni o‘trimga keltirmagan.

Tosh shahardagi bosh universitetlardan birining gazetasi muharriri, eski tanishim gazetasini tahririyatimizda sahifalatib ketardi. Har gurungimizda universitet rektorini hechqursa bir esga olar, alqardi. So‘ramasam ham. Universitetda rektor almashgach, besholti kun o‘tib yana keb qoldi domlam.

“Mavzu jihatidan ham, voqelikka dadil yondashuv va shakl-u ifoda jihatidan ham tamomila yangi, ohorli asarlar...”

**Erkin A’ZAM**

– Qalay, yangi rektorga o‘rganishib qoldilaringizmi? ...domla qayepira ketdi? – so‘radim.

– Ay, uni so‘rama. Ish berishmadi, pensiyaga chiqdi. O‘zi bo‘lmag‘ur odam edi, – dedi bamaylixotir.

“Odam ko‘rganim yolg‘on!” dedim ichimda...

Bu kimsa hayotimda birinchi ko‘rgan mardak (odamcha; pastkash odam) edi.

Oxirgi paytlar ijtimoiy tarmoqlarda negativ ko‘payib ketdi. Maishiy muammolar, katta-kichik jinoyatlar haqidagi chin-yolg‘on aralash xabar va xabarchalar-ku, mayli, tuppa-tuzuk deb yurgan odamlarning mardak ekanligini fosh qilib qo‘yadigan kontentlarni ko‘rib, o‘qib dashtda, kengliklarda katta bo‘lgan, to‘g‘rini to‘g‘ri, noto‘g‘rini noto‘g‘ri deyidigan odamlar qurshovida o‘sgan men sodda mardum yoqamga tufdashdan boshqa ishini bilmay qolaman.

Gap Birinchi Prezidentimizga qo‘rqa-pisa yoki pisan-da bilan tosh otayotganlar haqida. Xo‘p, uning davrida o‘zi yo biron qarindoshi qamalgan, ishdan haydalganlar gapirsa, tushunish mumkindir. Odamchilik. Lekin Karimov davrida uning panohida yayrab-yayrab unib-o‘sganlar bir narsalar deb yuborsa, rahmatli ustozim Mahmud Sa‘diyning g‘amgin aforizmga aylangan gapi esimga tushib ketaveradi: “Yaxshilik jazosiz qolmaydi!”

Nega bundaychikin xalqqa aylanib qoldik!? Nega bunday millatga aylanib qoldik?! Yuksak taraqqiyotga erishgan AQSH, yuksak taraqqiyotga erishayotgan Xitoy, yo bo‘lmasa o‘zimizga yaqin qo‘shni mamlakatlarda o‘tgan davlat arboblari tosh otilgani, go‘riga g‘isht qalangani haqida eshitmadim, o‘qimadim. O‘zbekka nima bo‘ldi? Vijdon degan yuksak tuyg‘u nahotki shunchalik jo‘nlashib, kissada olib yuradigan, kerak payti taqib oladigan matohga aylanib qoldi?..

Ustoz yozuvchi Xayriddin Sultonning “Osmoni falaklarda” hikoyasini o‘qib shu fikrlar xayolimdan o‘tdi.

Hikoya bosh qahramoni Shamshevtov – o‘zbek adabiyotida yangi qahramon. Yangiligi faqat uchuvchi bosh qahramon sifatida tanlanganida emas, dangal o‘zbek xarakteri, timsoli ochib berilganida ham.

Erix Mariya Remarkning “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” romani qahramonlari – qahramon jangchilar, harbiylar oddiy gaplarni ham so‘kinib gapiradi. Bu o‘qiguvchiga aslo og‘ir botmaydi. Urush sharoiti shunday gaplashishni taqozo etganini tushunasan. “Osmoni falaklarda” yuradigan Shamshevtov – oliy toifali uchuvchiga ham sal dag‘alroq, to‘g‘rirog‘i dangal gapirish

yarashadi. Chunki u haqiqiy qahramon. Zero, “Menga qolsa, mana shu tog‘day bahaybat samolyotni havoga ko‘tarib, osmoni falakda necha ming kilometr yo‘l bosib, yana eson-omon yerga qo‘ndirishning o‘zi har safar qahramonlik, to‘g‘ri emasmi?” (“Ikki karra qahramon” hikoyasidan).

“Kitob keyingi qirq-ellik yillik davrning eng muhim belgi-alomatlari, inson tafakkuri o‘zgarishlarini o‘zida mujassam etgan”.

**Iqbol MIRZO**

Hali hikoyani o‘qimaganlarga Shamshevtovni tanishtirish uchun unga estoniyalik saboqdosh jo‘rasi bergan ta‘rifni keltirish kifoya:

“Oti... otini unutibman. Hamma “Shamshevtov” deb chaqirardi-da. Haqiqiy erkak u, turmug‘i po‘latdan. Agar “beshinchi grafa”si (sovet pasportida fuqaroning millati ko‘rsatiladigan grafa) bilan rasvo fe‘li bo‘lmaganida, Gagarin albatta sizlardan chiqardi”.

Majlisda rahbarlarga ham to‘g‘ri gapni dangal gapiradigan (“Graf” laqabini ham shuning uchun olgan), ba‘zan ashula aytgisi kelib qolganda sherigi qo‘ying, “atrofdagilar kuladi, biz gruzin emasmiz-ku” deganda, g‘ujuri qo‘zib “Ha nima, o‘zbek odam emasmi?” deb garchi ovozi yetmasa-da, zavq bilan baralla ashula aytishga tushib ketadigan, yer yuzidagi barcha mardumlarni ikki toifaga – “uchuvchilar va boshqa qolgan hamma odamlar”ga bo‘lib olgan, “osmoni falaklarda sorlochin singari parvoz qiladigan, bulutlar va yulduzlar, shamol va bo‘ronlar bilan xuddiki tirik odam kabi gaplashadigan”, ammo barcha ulkan shaxslar kabi “yerdagi ko‘pgina maishiy muammolar qarshisida nochor-u notavon” bir inson Shamshevtov deganlari.

“Shamshevtov bosh direktor ishdan bo‘shatilganidan so‘ng o‘tirishlarda ham, majlislarda ham u haqda gapirishni umuman bas qildi. Boshqalardan farqli o‘laroq, ketganni emas, kelganni tanqid qila boshladi. Shu sababli majlis-u mashvaratlar endi Shamshevtov yerdada emas, osmonda parvoz qilib yurgan vaqtlarda o‘tadigan bo‘ldi”.

“Bu hikoyalar ruhsizga ruh, umidsizga umid, kuchsizga kuch beradi”.


**Sirojiddin SAYYID**

Xullas, shunday mard, o‘ziga ishongan shaxs, mohir uchuvchi, garchi oqibatda sevimli ishdan ayrilgan bo‘lsa-da, hal qiluvchi paytda vijdoniga xilof ish tutmaydi. U boshqarayotgan samolyotga jinoyatchi sifatida qo‘lga olinib, xorijiy davlatdan ekstraditsiya qilingan sobiq do‘sti va sobiq boshlig‘i, bir paytlar o‘zi kabi mohir uchuvchi bo‘lgan Eshbekovni olib kelishganida, garchi u bilan o‘rtalaridagi munosabat buzilgan, hatto sovuqlashgan bo‘lsa ham, o‘z so‘zida qat‘iy turib, Eshbekovning qo‘lidagi kishanni yechishlariga erishadi. Boz ustiga unga alohida dasturxon tuzaydi. Avvalgidek munosabatda bo‘ladi: “Men samolyotimda uchuvchi zotini xor qildirib qo‘ymayman, uqdingmi?”...

... “– Tushun axir, Shamshevtov, menda buyruq bor!”

Sen ham meni tushun, menda vijdon bor!”

Bor-a, shunday odamlar oramizda. Ha, Xudoga shukrki, bor. Do‘stini sotmaydigan, vijdonini sotmaydigan, o‘zini sotmaydigan odamlar...



“Osmoni falaklarda” bosh qahramoni yerda yurganlarning ko‘pidan baland. Yozuvchi uni bosh qahramonlikka tanlar ekan, mayda, mardak odamlar ko‘payib ketgan bir davrda millatni ko‘taradigan bunday shaxslar ko‘p bo‘lishini istagan menimcha.

“Haqiqiy qahramon, har qanday sharoitda ham hissiyotlari ustidan g‘alaba qozonib yashaydigan insondir. Asar ayni shu haqda”.

**Bahodir KARIM**

“Osmoni falaklarda” kitobidan o‘rin olgan “Ikki karra qahramon” va “Bir kishilik aviahalokat” hikoyalari ham o‘tkir va g‘amgin syujeti bilan o‘quvchini o‘ziga tortadi.

Odam yaxshi kitob o‘qiganda ko‘ngli tozaradi. Adabiyotning vazifasi faqat estetik zavq berish, dimog‘ni chog‘ qilish emas, ruhga quvvat berish, qalbni g‘uborlardan poklash ham ekanini o‘ylaysan.

Xayriddin Sulton asarlarini o‘qiganda, men hamisha shuni his etaman. “Boburiynoma” ma‘rifiy romani deysizmi, “Yozning yolg‘iz yodgori”, “Ko‘ngul ozodadur”, “Ishonch telefoni” kabi badiiy yuksak qissalari, o‘nlab dilbar hikoyalari deysizmi, barchasi o‘quvchini adabiyotning sirli va sehrli olamiga yetaklab, uning qalbiga ezgulik nurini olib kirish bilan birga, unga badiiy zavq ham ulashadi.

Xususan, muhtaram adibimizning yangi – “Osmoni falaklarda” kitobini o‘qigan insonning, kitob taqdimotida ustozlar ta‘kidlaganlaridek, ko‘ngli ham, ruhi ham, didi ham osmon qadar yuksalmog‘iga ishonchimiz komil.

Bu yuksak mutolaa parvozi sizga ham nasib etishini tilayman, aziz o‘quvchi.

**Husan KARVONLI**

“Bu g‘amgin muhabbat qissasini o‘qir ekansiz, hazrat Navoiyning “Olloh-Olloh, ishq aro mundoq balolar bor emish” degan misrasi beixtiyor xotirga keladi”.

**Sultonmurod OLIM**





## Davra suhbatlari



O'zbekiston xalq yozuvchisi Shukur Xolmirzayev hayot bo'lganida bu yil ko'klamda 85 yoshga to'lgan bo'lardi. "Adabiyot – hasratdan boshqa narsa emas. Faqat yozuvchining oddiy odamdan farqi – oddiy odam o'z dardidan hasrat qilsa, yozuvchi bironlar dardidan hasrat qiladi", deb yashagan adibimiz hayotiy e'tiqodi, ona yurti Boysunni va tengi yo'q bu joylarning tarixini behad sevuvchi katta qalbi, or-nomusi va shijoati bilan hamma davrlarda ham ibrat bo'la oladigan zabardast inson edi. Yozuvchining ijodiy merosi serqirra va serjiloligi bilan kitobxonlarni o'ziga maftun etadi. Shukur aka nasrda o'ziga xos yangi bir yo'nalish ochgan va bu ijod yo'lining imkoniyatlarini o'quvchilariga butun bo'y-basti bilan ko'rsatib bera olgan novator yozuvchi edi. "Adabiyotni qismatim deganman" – Shukur Xolmirzayev o'z e'tiqodiga umrining so'nggi lahzalariga qadar sodiq qoldi.

Adibning 85 yillik yubileyi arafasida O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi Xolboy Qosimov O'zbekiston xalq shoiri Usmon Azim, adibning amakisi, shoir, O'zbekiston "Trastbank"i boshqarma boshlig'i Saidmuxtor Fayzullayev hamda Bulung'ur tumanidagi "Chavqi" folklor-etnografik ansambli asoschisi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Suvonqul Abduqodirov bilan adib hayoti xotirotlari to'g'risida suhbatlashdi.

**Xolboy Qosimov:**

– Usmon aka, adibning eng yaqin shogirdlaridan biri sifatida uning qaysi xislatlarini alohida ta'kidlagan bo'ladingiz?

**Usmon Azim:**

– Shukur Xolmirzayev faoliyati davomida hech kimning ijodiy yo'lini o'zlashtirmadi. U ustozlariga cheksiz muhabbat bilan mehr qo'ydi, tengdoshlaridan faxrlandi, shogirdlariga nisbatan suyuqli bo'ldi, ulardan o'git-u beg'araz yordamini ayamadi. Chunki adibning o'zi rostgo'y, nohaqlik bilan murosa qila olmaydigan, dilidagi doimo tilida bo'lgan shaxs edi. Adib asarlari bir qarashda oddiy, shunchaki qiziqarli hangomadaya tuyuladi. Biroq chuqur mulohaza qilsangiz, unda o'zbek xalqining turmush kechinmalari, tashvish-u armonlari gavdalanadi. Adibning boy ijodiy merosi tadqiqotchilar ko'magida xalqaro miqyosda e'tirof qozonishini niyat qilsak, ayni muddao bo'lar edi.

Ustozimni eslasam beixtiyor O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripovning quyidagi so'zlari yodimga tushadi: *"Men do'stim Shukur Xolmirzayev bilan zamondosh bo'lganimdan faxrlanaman. Universitetda birga o'qiganman, nashriyotda birga ishlaganman. Tog'ni bor bo'yicha yaqindan ko'rib bo'lmaydi. Undan uzoqlashganing sari salobati, mahobatini bo'y-basti bilan ko'ra boshlaysan. Shukur adabiyotimizda ana shunday tog'lardan biri edi. O'tgan asrning ikkinchi yarmida adabiyotimiz tarixida ko'p emas, Oybek, Abdulla Qahhordek siymolardan so'ng Shukur Xolmirzayev degan yozuvchi qoladi. Buning yorqin sabablardan biri iste'dodi, talanti, san'ati, mehnati..."*

Do'stim O'zbekiston xalq yozuvchisi Erkin A'zamning ham adibimiz haqida yaxshi bir gapi bor: *"Shukur aka adabiyotga uncha-muncha yozishni bilmaydigan, iste'dodi yo'q odamlarning kirishini xohlamasdi. Adabiyot go'yo bir saroy-u, darvozasining kaliti xuddi uning kissasidagidek edi. Adabiyotni o'ziniki deb bilardi. Va bunga uning haqqi ham bor edi"*.

Kezi kelganda, bir o'tinchimiz bor: *"Adibning ilm va adabiyot namoyandalarining ayrim qarashlari-*

*ga, asarlariga bildirgan e'tirozlarini ul muhtaram zotlarning shaxsiga nisbatan deb tushunmaslik kerak"*. Shukur aka kompartiya a'zosi ham, sovet yozuvchisi ham emas edi. O'zi aytganidek, e'tiqodi boshqa inson edi, aslida. To'g'riso'z, cho'rtkesar, hayot haqiqatini har narsadan ustun qo'yadigan adib sifatida sovet tuzumi va mafkurasining oxir-oqibat inqirozga yuz tutayotganligini oldindan ko'ra bildi.

**Xolboy Qosimov:**

– Saidmuxtor uka, Shukur Xolmirzayev otangizning otadosh ukasi bo'ladi. Siz, akangiz Shukur aka to'g'risida, bobongiz Fayzulla Xolmirza o'g'li haqida qanday yorqin xotiralarinigizni bo'lisha olasiz?

**Saidmuxtor Fayzullayev:**

– Olti-yetti yoshlarimda otam Omonulla Fayzulla o'g'lining, qolaversa, bobokalonlarimizning Shukur aka to'g'risidagi suhbatlari, uni tez-tez tilga olib eslab turishlari qulog'imga chalinardi. Tabiiyki, Shukur aka ota yurti Bulung'ur, u yerdagi yaqinlari haqida surishtirib, ular bilan tanishishni orzu qilib yurgan.

Shunday hayajonli damlar yetib keldi – 1972-yili Shukur Xolmirzayev 32 yoshida Bulung'ur vohasi Bedana qishlog'iga bordi. Haqiqatan, Shukur akam bilan ilk tanishuvimiz to'yga aylangandi o'shanda. Hamma qarindoshlar akani bag'riga bosgan, momolar xursandligidan yig'lab-siqtagan. Davradagilar ham akadan ko'zlarini uzmasdi. Bobolarimizning qishlog'imiz, "Hojito'p" qavmimiz, ajdodlarimiz tarixi haqidagi hangomalari avjiga chiqqandi. Otamizning otasi Fayzulla bobomiz savodxon kishi bo'lgan. 1920-yillar boshida sho'ro tuzumining Farg'onadagi muallimlar tayyorlash kursida tahsil olib qaytadi. So'ng Samarqandda ochilgan O'rta Osiyo universitetiga o'qishga kiradi. O'qish bilan birga Samarqandda maorif sohasida ishlaydi. Birinchi qaldirg'ochlar safida o'qishni tugatgach, Bulung'urga ishga yuboriladi. Fayzulla bobom Bulung'urda jadidchilik harakatiga asos solgan ma'rifatli kishi edi. 1924-yili hozirgi Ulug'bek xo'jaligi hududidagi Changal, Nebo'sa qishloqlari markazida birinchi boshlang'ich maktablarni tashkil etadi. Bu maktablarda mudirlik hamda o'qituvchilik qiladi. Yangi tuzumning "chalasavodlikni tugatish" kurslarini ochish, artellar tuzish, keyinchalik kollektivlashtirish(kolxozlar tashkil etish) jarayonlarida faol ishtirok etadi.

Kattaotamiz Samarqandda o'qib yurgan kezlari Xayriniso ismli kattaonamiz bilan turmush qurgan. Ularning to'ng'ich farzandi otam Omonulla 1928-yili tug'ilgan. Otam tug'ilgunga qadar ularning uch nafar farzandi nobud bo'lgan. 1929-yili Rahmatilla, 1931-yili Habibulla ismli o'g'illari tug'iladi. Xayriniso kattaonamiz ham hayot taqozosiga ko'ra, turli maktablarda muallimlik qiladi. Men kattaonamdan *"Fayzulla kattaotang qanday kishi bo'lgan?"* deb so'raganimda *"Kattaotang baland bo'yli, yelkalari keng, qirraburun, ancha baquvvat kishi edi. Sochi nim jingalak, peshonasi yaltirab kulib turardi. O'n yil vatan qurgan bo'lsak, biron marotaba ham menga qattiq gapirmagan"*, deb ta'riflagan.

Fayzulla bobomizni 1928-yili Samarqandga maorif mudirligiga ishga taklif qilishadi. Bu vazifada ishlash barobarida shu yerda faoliyat olib borayotgan jadidlar bilan mustahkam aloqa o'rnatadi. Shaharda chop etilayotgan bir qator markaziy gazetalarda maqolalari bilan faol qatnashadi. Yangi tuzumning sharoitlariga ko'nikolmagan ayrim nopok kimsalar bobomning yutuqlarini ko'rolmaganidan unga nisbatan tuhmatlar uyushtiradi. 1930-yilning o'rtalarida Y.Oxunboboyev Fayzulla bobomni Toshkentga huzuriga chaqirtiradi va *"Ig'vogar g'alamislar ustingizdan turli xil tuhmatlar uyushtirishayapti, qora ro'yxatga tushib qolgansiz. Sizni yaxshi bilaman, halol-pokiza ishlayapsiz. Lekin nachora, ishingizni gaplashib qo'yibman, bugunoq Boysunga ketishingiz kerak, aks holda qo'lga olishlari mumkin"*, deydi...

Bobomiz Boysunga kelishi bilan ishni "upol-komzak" boshlig'i(hozirgi tuman moliya bo'limi) vazi-

fasidan boshlaydi va bir vaqtning o'zida tumanning "G'alla fronti" gazetasiga muharrir etib tayinlanadi. Gazeta sahifalarida birin-ketin yangi tuzum dushmanlarining g'alamisliklarini keskin fosh etuvchi tanqidiy maqolalar chop etiladi. Shu bois, gazeta tahririyatining ham obro'si tobora oshib borayotgandi. Tabiiyki, gazetaning kundan kun oshib borayotgan nufuzi, qolaversa yangi muharriri Fayzulla bobomizning qat'iyatliligi, cho'rtkesarligi, bir so'zligi boysunlik bir to'da ig'vogarlariga yoqmaydi. Biri partiyadan haydalgan, biri yangi tuzumda ro'y berayotgan o'zgarishlarni ko'ra olmagan, yana biri esa "Ilg'or Surxon uchun" gazetasida felyeton bo'lgan Yo'ldosh Saidov, Rahim Shokirov, Xursand Eshqulov, Bo'riboy Norqulov kabi chalasavod, tuhmatchi guruhbozlar tumandagi sog'lom fikrli rahbarlar ustidan yuqori tashkilotlarga, hatto VKP(b) Markazqo'mining kotibi Stalin nomiga ketma-ket yumaloq xatlar uyushtiradi.

Bu paytga kelib yuqorida nomlari tilga olingan bir hovuch tuhmatchilarning g'alamisliklari tobora avj olgandi. Ular ataylab bir ziyofat uyushtirib, Fayzulla bobomizni ham qo'yarda-qo'ymay o'sha ziyofatga

## “Trend”lar qurboni

**Dolzarb mavzu**

*Yozuvchi barcha ongi  
osti hislari, tajribasi,  
tushunchasi, qadr-qim-*

*mati, psixologik muammolar, to'g'ri deb bilganlari, kelajakka qarashi hamda inson, oila, jamiyat, ta'lim-tarbiyani qanday ko'rishini kitobda tasvirlashga harakat qiladi. Insoniylikning asl mohiyati, basharning ruhiy og'riqlarini juda teran va oliy adabiyot tili bilan ifodalash, matnlarning qiymatini satr oralariga yashirish, oshkora axloq darsi o'tish emas, balki obrazlarning hayot tarzi, boshiga tushgan sinovlar, ichidan o'tkazgan o'y va fikrlar yordamida tasvirlashda ham axloqiy, ham adabiy me'yorlar mujassam bo'lmog'i kerak. Zero, adabiyot bir millatning tushunchasi, qadriyatlari, natijada qismatini ham butunlay o'zgartirib yuborishga qodir bo'lgan jara-yondir.*

Kitob – inson tafakkurini shakllantiradigan, his-tuyg'ularini o'stiradigan, dunyoqarashini boyitadigan qudratli vosita. Lekin adabiyot noto'g'ri qo'llarda bo'lsa yoki undan g'ayri maqsadlarda foydalanilsa, u inson ruhiyatini ham zaharlashi mumkin.

Adabiyot xalqning vijdoni bo'lishi kerak, lekin bu vijdon hozir bozor qonuniyatlariga bo'ysundirilayotgani achinarli. Kitoblarning g'oyaviy sofligi emas, balki ularning savdosi, marketing strategiyasi birinchi o'ringa chiqib bormoqda. Bu madaniyatni tovarga aylantirish degani.

Bugungi kunda ayrimlar tomonidan tijorat maqsadida chiqarilayotgan kitoblar haqiqiy adabiyot emas, balki sun'iy ravishda yaratilgan his-tuyg'ular, qiziquvchanlikka qurilgan marketing mahsulotidir. Yoshlar to'g'ri yo'nalish topishi, mustaqil fikrlay olishi uchun ularga haqiqiy hayotni ko'rsata oladigan, ruhiyatlarini boyitadigan asarlar kerak. Ammo ko'p hollarda ularni quruq so'zlarga g'arq qilyapmiz, yolg'on g'oyalarga ishontrayapmiz. Bu esa jamiyatning kelajagini zaiflashtirishdan boshqa narsa emas.

Adabiy asar birinchi navbatda maroqli va ko'p tarqoqli bo'lishi, o'zida teran ma'no va ibratlarni mujassamlashtirishi darkor. Asl badiiy adabiyot yanglish harakatlarning, g'azab kabi salbiy hislarning achchiq natijalari badiiy shaklda ko'rsatilishidir. Ammo yuqorida aytilgan me'yoriy jihatlar hozir nashrdan chiqayotgan asarlarning ko'pchiligida mavjud emas. Ayrim tijoratchilar jinsiy ojizlik, soddalik, agressiyani targ'ib etishmoqda. Mohiyati shundan iborat bo'lgan asarni ta'sirli so'zlar, adabiy ifodalar bilan bezab o'quvchilarga taqdim qilinyapti. Teran sevgi iztiroblarining ta'siri ostida yozilgan asarda xususiy ehtiros his qilinadi.

# o'ziniki deb bilardi..."

olib boradi. Ziyofat avjiga chiqqan bir paytda nopok kimsalar bir varaq oq qog'ozni bobomizga uzatib, qo'l qo'ydirib oladi. Shirakayf bo'lgan bobomiz gap nima-daligini bilmaydi ham. O'sha bir varaq qog'oz bobomizning taqdirini hal qiladi. Kechasi bemahalda uylariga to'rt nafar NKVD xodimlari kelib, uni olib ketadi. Tergov boshlanadi. Shunday kunlarning birida 1942-yili Fayzulla bobomizning ikkinchi farzandi tug'iladi. Unga Ra'no deb ism qo'yadi. Hali chillasi ham chiqmagan qizini Oysha xolamiz turmaga olib borib bobomizga ko'rsatadi. Boysun tuman sudi raisi Rajab Chaqqonov bobomizni bir xodimi bilan birga o'n yil berib qamati yuboradi. Ularni 1942-yili Chelyabinskka olib ketishadi. 1943-yilning kuzigacha bobomiz Oysha xolamiz bilan xat yozishib turadi. Keyin ko'ngillilardan bo'lib urushga ketadi. Urushda halok bo'lgan, deyishadi...

Fayzulla bobomning otasi Xolmirza katta bobomiz ham birin-ketin urushga ketgan farzandlaridan judo bo'ladi. Umrining so'nggi kunlari *"Boysunga borib nevaralarimni ko'rib kelsam"* deb orzu qilarkan. Biroq xastaligi tufayli bora olmagan. Oxirgi kunlari Shukur aka va Ra'no opamizni ko'p eslagan:

## bo'layotgan adabiyot

Shuningdek, hayotning sun'yligi, majoziy olam hayotidagi ma'naviy bo'shliqlarni to'ldirish uchun o'smirlarga yoqadigan ishqiy romanlar va shu turdagi badiiy adabiyotlar ko'paymoqda. Ularda haddan tashqari ko'p romantika, behuda va ma'nisiz emotsiyalar, insonlarni aldovchi umidlar bor. Hayotda foydali bo'ladigan amaliy ma'lumotlar esa juda kam. Adashgan jamiyatning bizga singdirayotgan navbatdagi sun'iy qadriyatlari bunday kitoblarni qimmat baholamoqda.

Bu ruhiy zaiflik, tushkunlik, ma'nosizlik hissi muhit va albatta, axborot ta'siri bilan bog'liq. Ayrim asarlar insonning ichidagi shu holatni kuchaytiradi, unga yashash emas, taslim bo'lish ishorasini beradi. Masalan, badiiy asarlarda romantiklashtirilgan o'lim g'oyasi – bu juda xavfli signal. O'zini yo'q qilishni estetik bir holat sifatida ko'rsatish – mas'uliyatsizlik. Adabiyot hayotni sevishni o'rgatishi kerak, uning mazmunini topishga yordam berishi lozim.

Bugungi kunda ba'zi adabiyotlarda erkak va ayol o'rtasidagi tabiiy munosabatlar dushmanlikka aylantirilmoqda. Bu esa oila tushunchasini so'ndirish, insoniy qadriyatlarning parchalanishiga olib kelishi mumkin.

Bola nima o'qiydi? O'qiyotgan narsasi uning hayotiy prinsiplarini shakllantirayaptimi yoki sun'iy hissiyotlar girdobiga tortayaptimi? Bu juda muhim savollar. Ota-onalar, jamiyat buni tahlil qilishni boshlashi kerak. Agar biz kitoblarni tanlamasak, hayot biz uchun tanlab beradi va bu tanlov doimo to'g'ri bo'lmasligi mumkin.

Ayrim nashriyotlar tijorat maqsadida iste'mol adabiyotini ko'paytirmoqda. Ularda ma'naviy boylik emas, balki tez sotiladigan va odamlar o'qishga qiziqadigan sayoz asarlar tanlanmoqda. Albatta, ularning nomlari ham sun'iy ravishda o'ziga tortadigan qilib tanlangan. Natijada, haqiqiy adabiy meros emas, balki muvaqqat "trend"lar paydo bo'lmoqda.

Bu holatda dunyo adabiyotining eng sara asarlarini tanlab tarjima qilish – eng to'g'ri yo'l. Bu jarayonda tarjimonlar, muharrirlar, nashriyotlar, va eng muhimi, kitobxonlar ongli ravishda yondashishi zarur.

Kitob – qurol. U kimning qo'lida va qanday ishlatilishi muhim. U yoshlarga yo'l ko'rsatishi ham, ularni chuqur jarlikka yetaklashi ham mumkin. Shuning uchun jamiyat bu borada hushyor bo'lishi lozim. Kitob tanlash bu shunchaki o'quv jarayoni emas, balki o'z kelajagimizni belgilash jarayonidir.

Shohrux O'KTAMOV,  
O'zbekiston XDP Farg'ona  
viloyat kengashi raisi



*Bulung'urning tog'idan lochinimni uchirdim,  
Boysunning tog'laridan ko'z tikadi bollarim...*

Xolmirza bobomiz 1944-yili vafot etadi. Shukur akaning Bedana qishlog'idagi otadosh akasi Omonulla otamiz ham 5 o'g'il hamda 2 nafar qizini voyaga yetkazadi. O'zlari ham uzoq umr ko'rib, 86 yoshida vafot etadi.

**Xolboy Qosimov:**

– *Suvonqul aka, amakingiz Shukur Xolmirzayev bilan ilk bor qachon tanishgansiz?*

**Suvonqul Abduqodirov:**

– Amakim Shukur Xolmirzayev haqidagi gap-so'zlarni 8–10 yoshimdan yaxshi eslayman. Bobolarimizning har zamonda turli gurunglarda *"Toshkentda Shukur Xolmirzayev degan katta yozuvchi ukamiz bor, bir borib tanishib kelsak, yaxshi bo'lardi-da"*, degan gaplari qulog'imga chalinardi. Beshinchi sinfda o'qiyotgan bo'lsam kerak, adabiyotga qiziqqanligim uchun kutubxonadan u kishining kitoblarini surishtirdim. Biroq topilmagan. Oradan ko'p vaqt o'tmay, otamning ukasi Suyun akam menga Shukur akaning *"O'n sakkizga kirmagan kim bor?"* deb nomlangan kitobini sovg'a qildi. Kitobni qo'limdan qo'ymay tezda o'qidim. Bu asar menda katta taassurot qoldirdi. Keyin boshqa kitoblarini ham topib o'qiy boshladim.

*"Fayzulla bobom Boysunga ishga ketganidan so'ng yana qayta uylangan. Turmush o'rtog'i Oysha xolamiz bilan Bulung'urga ilk bor taxminan 1940-yilning yozida kelgan. O'shanda Shukur ukamiz besh-olti oylik chaqaloq ekan"*, derdi otam. Telegrafdan *"Qishloqqa boryapmiz"* degan xabar kelgach, ularni nafaqat qarindoshlar, balki butun Bedana qishlog'i ahli kutib olish uchun *"Bulung'ur"* arnasi(katta ariq)dan o'tgan, ko'pri yonidagi qo'riqqa tushib ikki-uch kunlab kutib, katta xursandchilik bilan qarshi olishgan. Ular bir hafta mobaynida qishlog'imizda mehmon bo'lib, bulung'urlik qarindoshlari bilan yaqindan diydorlashgan. Qaytishda turmush o'rtog'i Oysha onamiz Fayzulla bobomizga *"Bulung'urdagi urug'laringiz juda katta avlod ekan, Shukurjonda shu avlodning qoni bor, ular bilan aloqani uzmasligimiz kerak"*, deb aytgan ekan.

Men 1973-yili harbiy xizmatdan qaytganimdan so'ng otam *"O'tgan yili yozda yozuvchi ukamiz Shukurjon avlodimiz bilan yaqindan tanishish uchun qishlog'imizga, akasi Omonullanikiga keldi, borib suhbatlashdik"*, deb aytib qoldi. Bu tashrif haqida yuqoridagi Saidmuxtor ukamiz batafsil to'xtaldi. 1974-yili avlodimizdan uch kishi Toshkentga o'qishga bordik. Men sobiq Toshkent teatr va rassomchilik institutiga, Saidmuxtor ukamiz hozirgi iqtisodiyot universitetiga, Norboy ukamiz qurilish texnikumiga o'qishga kirdik. O'qishni boshladik. Oradan bir oy o'tib Norboy ukamizning otasi Qosim bobomiz, Saidmuxtorning otasi Omonulla akamiz o'qishimizdan xabar olish uchun

Toshkentga kelishdi. Kvartirada osh damlab chiroyli davra tashkil qildik. Miriqib suhbatlashdik. Bir mahal Omonulla akamiz *"Ertaga tayyorgarlik ko'ringlar, kechga Shukur ukamiznikiga boramiz. Sizlarni yaqindan tanishtirib qo'yamiz, keyin vaqti-vaqti bilan xabarlashib turasizlar"*, dedi. Ertasi kuni Shukur akaning *"Tinchlik"* bekati tushib boriladigan hovlisida mehmon bo'ldik. Iliq qarshi oldi. Shukur aka boysunlik ikki-uch ukalarini ham chaqirgan ekan. Domla o'qishga kirganimizdan juda xursand bo'ldi, bizni tabrikladi. Bir piyola choy ustida allamahalgacha miriqib suhbatlashdik. Akasi Omonulla aka *"Shukurboy, mana ukalaring bilan yaqindan tanishib olding. Xabarlashib tursalaringiz yaxshi bo'ladi. Ma'rakalarimizga aytamiz, imkon qadar borishga harakat qilinglar, kelinimizni, nevaralarimni olib o'tingizlar"*, dedi. Qosim bobom duoga qo'l ochar ekan *"Ilohim ijodiy ishlaringiz serunum, barakali bo'lsin, tez-tez diydorlashib turaylik. Ukalaringizning, farzandlarimizning o'qishlariga omad tilab qolamiz, xonadoningiz bundan-da fayzli bo'lsin, uka"*, deb duo qildi. Oradan ko'p o'tmay Shukur aka oilasi bilan Bulung'urga bordi.

Men 1986-yili Bulung'ur tumanidagi 1-qishloq madaniyat uyi qoshida *"Chavqi"* folklor-etnografik ansamblini tashkil qildim. Ansambl ikki-uch yil ichida nafaqat yurtimizda, qolaversa butun O'rta Osiyo bo'ylab mashhur bo'lib ketdi. 1987-yil aprel oyida Toshkent shahrida respublika folklor jamoalarining ko'rik-tanlovida qatnashdik. Ko'rik-tanlov kechga yaqin yakunlandi. Surxondaryoning *"Boysun"* folklor-etnografik ansambli 1-o'rinni, *"Chavqi"* folklor-etnografik ansamblimiz 2-o'rinni egalladi. Tanlovda *"Boysun"* ansamblini qo'llagani amakimiz Shukur Xolmirzayev ham mehmon sifatida ishtirok etgan ekan. Tanlov tashkilotchilaridan biri menga *"Siz Bahodir Yo'ldoshevning xonasiga kirar ekansiz"* dedi. Xonaga kirsam Shukur akam B.Yo'ldoshev bilan suhbatlashib o'tirgan ekan, meni ko'rishi bilan quchog'ini ochdi. Bag'riga mahkam bosib *"Boysun"dan o'tolmabsilarda, otaxonlaring zo'r-ku"* deb meni qutladi. Juda xursand bo'ldi. O'sha yili may oyida taniqli san'atkorlar bilan birga Moskvada bo'lib o'tgan O'zbekiston san'ati va madaniyati kunlarida ishtirok etib, *"Xalq ansambli"* laureati bo'ldik. 1987-yili avgust oyida yana Moskva shahrida bo'lib o'tgan 11-Butunittifoq xalq ijodiyoti festivalida faol qatnashib, festivalning qimmatbaho sovg'a va diplomlari bilan taqdirlandik. Shu tariqa Shukur aka bilan ijodiy hamkorlikni boshladik. Har bir yutug'imizni ko'rib quvonchi ichiga sig'masdi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Do'rmondagi dam olish maskanida dam olayotgan payti ukalarim bilan ko'rgani borib turardik. Tong otguncha suhbat qilgan kezlarimiz ham ko'p bo'lgan...

Xolboy QOSIMOV,  
O'zbekiston Yozuvchilar  
uyushmasi a'zosi



## Nuqtayi nazar




Mazkur maqola biroz miyani qiynashi mumkin. Tan olish kerak, material yig'ish davomida o'zimizda ham ko'p ikkilanish bo'ldi, chunki XX asr dunyo miqyosidagi eng katta nazariyalardan birini bitta yoki ikkita gap bilan tushunish oson emas ekan, inchunin tushuntirish ham. Ammo urinib ko'ramiz. Maqolada Shahzod Shomansurovning "Fransuz buldogi" hikoyasi asosida poststruktural tahlil mezonlari haqida so'z yuritish maqsad qilingan, ammo faqat shu hikoya bilan cheklanmay, boshqa zamonaviy san'at namunalari ham murojaat qilamiz.

Poststruktural tahlilga kirishish uchun, avvalo, strukturalizmga to'xtalib o'tish joiz. Zero, poststrukturalizm shuning davomi va o'z navbatida inkor etuvchisi bo'lib maydonga chiqdi. Strukturalizm Ferdinand Sossyurning til borasida ilmiy qarashlaridan boshlandi. Unga ko'ra, til – bu strukturalar tizimi. Struktura doim biri ikkinchisi bo'lishini talab qiladi. Masalan, o'zbek tilida gap tuzish uchun ega, aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol, kesim kabi ketma-ketlikdan foydalanish – til strukturasidir, bu hatto so'zlar, fonemalarda ham bor. Aynan strukturalizm tufayli bugungi kunda so'zlarning qanday kelib chiqqani, to'g'rirog'i tovushlarning qanday taqliddan paydo bo'lib, ma'lum struktura, ya'ni belgiga aylangani ko'p tahlil qilinadi. *S* tovushi ilonning harakatiga taqlidan paydo bo'lgan, undan esa *soy* so'zi. Chunki oqayotgan suv to'g'ri chiziqli emas, ilon izi bo'lib oqadi. *Y* esa ma'lum narsaning aksini ifoda etgan. Shunday ekan *soy* o'zida akslantirish xossasiga ega, ilon izi bo'lib oqadigan nimaningdir ramzi. O'z-o'zidan u miyamizda ramz belgisiga aylanadi(*soy* so'zi). Ammo kelib chiqishi, mavjud bo'lishiga ko'ra qat'iy struktura ega. Va ongimizga ta'sir o'tkazuvchi ham aynan mana shu belgi orqasidagi strukturalar(*oy-na, oy* so'zlari ham akslantirishni ifoda etadi, shu ma'noda *soyga* juda yaqin). Bundan kelib chiqadiki, olam bu – belgilar tizimi va u qat'iy struktura ega. Masalan, Toshkent ko'chasiga ilingan coca-cola reklama banneri ham belgi. Uning ortida oddiy ishchi sinfining hordiq chiqarishi yotadi. Bu belgi orqali o'rta sinf shanba-yakshanbadan tashqari kapitalistlarga katta boylik olib keladigan mehnatda bandligi, ammo o'zi doimiy ishchi sinfi bo'lib qolishi, dam olish kunlaridagi reklamalar ongostiga singdirayotgani kabi hamma odamlar bir xil hordiq chiqarishi va shu orqali deyarli o'ylamaslikka mahkum qilinganining ramzi yotadi(mening qarashim). Bu esa jamiyat yo ishchi sinfining umr formulasi yoki strukturalar demakdir. Oldingi bir maqolada arxetiplar ham shunday o'zgarish ruhiy strukturalar ekanini aytgandik(Arxetip nazariyasining paydo bo'lishiga ham aynan strukturalizm turtki bergan). Jamiyatdagi har qanday udum, misol uchun bizning to'y marosimimiz ham belgi va u orqali bema'lol jamiyat strukturalari haqida ma'lumotga ega bo'lish mumkin. Shunday ekan, hamma narsa belgi bo'larkan, nutqning vizual ko'rinishi bo'lgan yozuv eng katta belgidir.

So'zdagi har bir belgi, shakl o'z navbatida nimaningdir ramzi. Yozuvga qaytadigan bo'lsak, eng katta belgi yozuv bo'ladigan bo'lsa, strukturalizmdan eng katta tadqiq obyekti, shubhasiz adabiyot bo'ladi. Ongning belgisi – til, tilning belgisi – nutq, nutqniki – so'z, so'z esa adabiyotni yaratadi. Adabiy matnlar bizga ham ruhiy strukturalar(arxetiplar misolida ko'rdik), ham falsafiy, ham ijtimoiy strukturalar haqida xabar beradi. Demak, bugun bir hikoya misolida falsafiy(yoki transdent) va ijtimoiy konstrukturalarni tahlilga tortamiz. Ammo undan oldin bir masala bor – so'zim avvalida poststrukturalni tahlilga tortishimni aytdim. Poststruktural esa strukturalizmdan biroz farq qiladi. U xuddi Yung Freyd g'oyalaridan qattiq ta'sirlanish va uning ayrim qarashlarini mutlaq inkor etish natijasi-

da ongosti arxetiplarini belgilagani kabi, Derridaning Sossyurdan ta'sirlanib, bu g'oyalarining ko'p qismini shubha ostiga olishi natijasida paydo bo'ldi. Derrida til va nutq ong belgisi ekaniga qo'shiladi, biroq yozuv aynan ongostagi narsaligini inkor etadi. Yozuv orqali biz doim ham haqiqatni bayon etmaymiz yoki nutqda chiqadigan emotsiya, ohang, ma'nolilikni yozuv to'liq qamrab olmaydi. "BOR" – shu so'zning qanday va nima ma'no anglatayotganini nutqdagi buyruq yoki his-hayajon, darak kabi ohang belgilaydi. Yozuvda esa bu imkonsiz(tinish belgisi qo'yilmasa). Ya'ni yozuvning o'zi ong yoki nutqning aynan in'ikosi, to'ppa-to'g'ri ma'nosi yo haqiqati bo'lolmaydi. Keling, endi buni boshqa narsalarga – jamiyat strukturalariga nisbatan tatbiq etamiz. Strukturalistlardan biri antropolog Levi-Stross qadimgi xalqlar turmush tarzini o'rgangan va muayyan struktura ishlab chiqqan. Deylik, patriarxat davridan beri iyerarxiyaning bosh qismida erkak turadi va inson deganda ham erkak tushuniladi, avvalo. Bu qadimgi xalqlar va zamonaviy jamiyatlar yashab kelayotgan jamiyat strukturalari. Ammo bu doim haqiqatmi yoki haqiqat bo'lgan taqdirda shunday qolaverishi to'g'rimi? Poststrukturalistlar birinchi navbatda uning haqiqat ekanligini shubhaga oladi. Bizning jamiyat ham qanchalik patriarxal bo'lmasin, unda ayollar hukmronlik qilgan davrlar bo'lgan-ku?! "Qirg'iz" eposi, To'maris haqidagi rivoyatni va Nodirabegim hokimiyatni boshqargan davrlarni biz istisno qilolmaymiz. Ular universal haqiqat("doimiy patriarxal jamiyat bo'lganmi?" degan fikr)ni so'roq ostida qoldiradi. Ya'ni universal haqiqatning *tafovutlari* chiqib keladi. Patriarxal jamiyat strukturalizmi uchun o'zgarishlik, universallik bo'lsa, poststruktural endi uni shubhaga oladi. U universallik emas, tafovutlar haqida gapiradi va ko'z oldimizda olamning universal, haqiqiy yo o'zgarish deb o'ylangan qiyofasini buzadi. Qiyofasini buzishni dekonstruksiya orqali amalga oshiradi. Dekonstruksiyaning o'zi konstruktini buzish demakdir. Doimiy patriarxal bo'lib kelgan jamiyat buyog'iga ham shunday davom etishi shartmas, bu konstruktini buzish, erkak va ayol o'rtasidagi iyerarxiyani yo'qqa chiqarish mumkin. Iyerarxiyaning boshida na erkak, na ayol, na nabobot va tabobat turishi shartmas, ular o'zaro tengdir, deydi poststrukturalizm. Strukturalizm esa bu iyerarxiyani quyidagicha baholagandi:



Iyerarxiyaning boshida butun jamiyatda erkak turgani tushunarli. Keyin ayol, keyin baliq va hokazo. Feminizm harakati ham aynan poststruktural konsepsiyadan o'sib chiqdi. Misolni soddalashtirish uchun, ko'z oldingizga bir namuna keltirsam. "Anora" filmi yaqinda ekranlarga chiqdi va o'zbek ommasi o'rtasida keng muhokamaga sabab bo'ldi. Film nima uchun mukofotlar olganini tushunmayotgan ham ko'pchilik. Fikrimcha, uning eng katta mohiyati ongimizdagi haqiqatni parchalagani – dekonstruksiya qilganida. Amerika dunyodagi ko'plab uchinchi mamlakatlar aholisi uchun "sehrli diyor", u yerda daraxtdan pul

## MANGUNING

yog'iladi deb ishonadiganlar bor. Ammo film buning mutlaqo aksini ko'rsatadi. Amerikadagi ishchi sinf (iyerarxiyaning eng pastki qavatida turgan ayol) uchun hayot niyohatda mashaqqatli va shafqatsiz raqobatga, kurashga to'la. Agar kinoni zamonaviy ertak deb olsak, afsuski bu safar syujet an'anaviy xotima topmaydi. Ertakshunos Proppga ko'ra, barcha oq otli shahzodani kutuvchi qizlar bosh qahramon bo'ladigan ertak murod-maqsadiga yetish bilan tugashi kerak – chunki an'anaviy struktura va arxetipik tasavvur doim shunday bo'lib kelgan-ku. "Oppog'oy", "Zolushka", "Sohibjamol va maxluq", qisman "Zumrad va Qimmat" kabi. Anora ham mana shu universal struktura ishonardi. Korchalon yigitcha uni botqog'idan qutqarishini orzu qildi. Bu uchun kurashdi hatto. Yakunda esa teshik tog'ora bilan qoldi. Demak, eng pastki qatlamda turgan "zolushka"ni endi biror erkak qutqarmaydi(*bu yerda tafovut vujudga keladi*) – bu shu paytgacha bo'lgan tasavvurlarimizni dekonstruksiya qiladi, buning ustiga amerikanacha orzu biz o'ylagandek jozibalimas, u faqat iyerarxiya tepasidagilargagina xizmat qiladigan ruhlantiruvchi omil ekan xolos. Sen botqoqda tug'ilib, iyerarxiyaning tepasiga mo'jiza tufayli ham borib qolishing dargumon. Ko'z oldimizda ozod, sehrli, mo'l-ko'l Amerika haqidagi universal(abstrakt) xayolni Anora qismatidagi tafovutlar yo'qqa chiqaradi. Mana uning dekonstruktiv, poststruktural mohiyati!

Endi bevosita Shahzod Shomansurovning "Fransuz buldogi" hikoyasiga qaytsak. Axir tepada aytilgan barcha gaplar mazkur hikoya tahliliga havola edi.

Avvalo, tahlil tushunarli bo'lishi uchun hikoya syujetini spoyler qilib ketishga majburman. Hikoyada ikki jinoyatchi qahramonning biri – roviysi rus kampirdan o'lamani deb turgan, ovqat chaynash uchun og'zida tishi qolmagan fransuz buldogini sotib oladi – azbaroyi kampirga rahmi g'alva orttirishi vajidan markaziy o'rinni egallaydi. Demak, hayot tarzimizga insonlar emas, vaqti kelsa hayvonlar ham eng katta ta'sir o'tkazishga qodir, bu esa hayvonlarning insondan past turuvchi o'rmini(universal haqiqatni) shubha ostiga oladi. Shu yerning o'zida tafovut kelib chiqadi. Umuman hikoyada bunday tafovutlar juda ko'p. Hikoya nomining o'ziyoq an'anaviy struktural iyerarxiyani buzadi. Hikoyaning "Qanchiq yo'qolib qoldi" gapidan boshlanib, kimga nisbatan nisbat berilgani yashiriladi. Boshida buni biror ayolga nisbatan aytayapti deb o'ylaysiz, chunki ko'cha tilida ayolga nisbatan ham bu so'z ishlatiladi. Ya'ni tilning ibora strukturalari orqali muallif bizni chalg'itishga urinadi, o'z navbatida hikoyaga qiziqtirib qo'yadi. Shuningdek, vaqti-vaqti bilan itlarga odam go'shti tashlanadi. Bu ham odamning itdan ko'ra muqaddaslashganini ko'rsatadi. Biz ko'rib turgan hayot aslan biz o'ylagan kabi emasligiga ishora. Hikoya jinoiy to'daga xizmat qiladigan ikki sherik haqida. Demak, iyerarxiyaning eng pastida turgan odamlar haqida o'qiysiz bu hikoyada ham. Bizni hayron qoldirib qahramon go'sht tashuvchi bo'lib chiqadi. Nega hayron qolaman? Sababi, bunday qahramonga adabiyotimizda birinchi marta duch kelyapman. Hikoyada go'sht haqida shunchalik ko'p ma'lumot o'qiysizki, agar strukturalist va poststrukturalistlar darg'alaridan biri Rolan Bartning muallifi o'limiga ovoz berib, amalga oshirgan tahliliga tayan-sak, faqat matnning o'zi qolsa va hech qanday ma'no unda ustuvorlikka da'vo qilmasa, bu faqat go'sht haqidagi matn degan xayolga borasiz. Hikoyada sur go'sht, lahm, yangi so'yilgan, quritilgan, muzlatkichda saqlangan go'sht haqida ensiklopedik ma'lumotlar keltiriladi va hech qachon go'shtga shunchalik razm solmaganingizga ham amin bo'lasiz. Rovi muzxona-da saqlangan go'shtni eng badbo'y va badhazm deb topadi, shunday bo'lsa-da, u muzxonalarda tashiladigan tonna-tonna go'shtlarni eltish bilan shug'ullandi. Faqat shu go'shtning o'zi tashilsa qani, ba'zan go'sht va dumaloq dudlangan kolbasalar ichida ziravor shaklida mayda-mayda nozik va qimmatbaho toshlar tashiladi.





**Gapparov Zahid Gapparovichning 13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo‘yicha “Murakkab koordinatsion sport turlarida sportchilarning fazoviy vaqt harakat qobiliyatlarini egallashini optimallashtirish” mavzusidagi (pedagogika fanlari bo‘yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy-tadqiqotlar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.33/01.02.2022.Ped.146.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 28-may kuni soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.**

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19-uy.

Tel/faks: (97) 689-10-92, 689-10-92;

veb-sayt: www.jtsiti.uz; e-mail: uzsport.science@gmail.com

**Klimashkin Aleksey Aleksandrovichning 14.00.01 – Akusherlik va ginekologiya ixtisosligi bo‘yicha “Homila o‘shining cheklanish sindromi: pasayish zaxirasi va o‘lik tug‘ilish holatlarining oldini olish” mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo‘yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent pediatriya tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019. Tib.29.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil 12-iyun kuni soat 11:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.**

Manzil: 100164, Toshkent shahri, Yunusobod tumani,

Bog‘ishamol ko‘chasi, 223-uy.

Tel/faks: (71) 262-33-14; e-mail: tashpmi@gmail.com

**Sa‘dulloyeva Iroda Kurbonovnaning 14.00.36 – Allergologiya va immunologiya hamda 14.00.20 – Tibbiy genetika ixtisosliklari bo‘yicha “Bolalarda tug‘ma yurak nuqsonlari rivojlanishining klinik-immunogenetik mexanizmlari” mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo‘yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Immunologiya va inson genomikasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019. Tib.50.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 6-iyun kuni soat 12:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.**

Manzil: 100060, Toshkent shahri, Akademik Yahyo G‘ulomov ko‘chasi, 74-uy.

Tel/faks: (71) 207 08 30; e-mail: immunology@academy.uz

**Mamatov Vaxidjon Shuxratovichning 05.09.05 – Qurilish materiallari va buyumlari ixtisosligi bo‘yicha “Fosfor o‘g‘itlarining chiqindisi asosida ko‘pikfosfogipsli bloklarning optimal tarkibi va ishlab chiqarish metodologiyasi” mavzusidagi (texnika fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.26/30.12.2019.T.I 1.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 3-iyun kuni soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.**

Manzil: 100194, Toshkent shahri, Yunusobod tumani,

Yangishahar ko‘chasi, 9-uy.

Tel/faks: (98) 55-508 02 95; e-mail: devon@taqu.edu.uz

**Bekmuratova Gulzada Tleumuratovnaning 17.00.02 – Musiqa san‘ati ixtisosligi bo‘yicha “Qoraqalpoq musiqa madaniyatidagi evolyutsion jarayonlar (musiqali teatr taraqqiyotida)” mavzusidagi (san‘atshunoslik fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O‘zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.27.09.2024.San.54.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 29-may kuni soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.**

Manzil: 100027, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani,

Botir Zokirov ko‘chasi, 1-uy.

Tel/faks: (71) 239-46-53, 244-53-20; e-mail: info@konservatoriya.uz

**Matyakubov Shavkat Batirovichning 17.00.02 – Musiqa san‘ati ixtisosligi bo‘yicha “Maqom xonandaligida ustoz-shogird an‘analari” mavzusidagi (san‘atshunoslik fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O‘zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.27.09.2024.San.54.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 29-may kuni soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.**

Manzil: 100027, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani,

Botir Zokirov ko‘chasi, 1-uy.

Tel/faks: (71) 239-46-53, 244-53-20; e-mail: info@konservatoriya.uz

**Sayidov Akmaljon Mutalibjonovichning 06.01.01 – Umumiy dehqonchilik. Paxtachilik ixtisosligi bo‘yicha “Tuproqqa ekish oldidan turli usul va chuqurlikda ishlov berishning begona o‘tlarga ta’siri (Andijon viloyatining och tusli bo‘z tuproqlari sharoitida)” mavzusidagi (qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.05/30.10.2020. Qx.126.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 31-may kuni soat 11:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.**

Manzil: 170600, Andijon viloyati, Andijon tumani, Oliygo‘h ko‘chasi, 1-uy.

Tel/faks: (74) 224-02-82, 224-02-62; e-mail: andqxai@exat.uz

**Gulova Munisaxon Afzalovnaning 14.00.13 – Nevrologiya ixtisosligi bo‘yicha “Migrenning arterial gipertenziya kasalligi bilan birgalikda kelganida rivojlanadigan surunkali miya ishemiyasi shakllanishining zamonaviy klinik, gemodinamik va ba’zi biokimyoviy jihatlari” mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.04.2022. Tib.93.02 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 10-iyun kuni soat 14:30 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.**

Manzil: 200118, Buxoro shahri, G‘ijduvon shohko‘chasi, 23-uy.

Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

**Abdazov Dilshod Rahmadjon o‘g‘lining 05.09.05 – Qurilish materiallari va buyumlari ixtisosligi bo‘yicha “Mahalliy xomashyo asosidagi o‘z-o‘zidan zichlashuvchi beton” mavzusidagi (texnika fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.26/30.12.2019.T.11.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 30-may kuni soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.**

Manzil: 100084, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Yangishahar ko‘chasi, 9-uy.

Tel/faks: (90) 372-71-94, (55) 508-50-14, (71) 234-15-11;

e-mail: devon@taqu.edu.uz

**Ilhomjonov Lutfulla Sultanovichning 09.00.04 – Ijtimoiy falsafa ixtisosligi bo‘yicha “G‘afur G‘ulomning ijtimoiy-falsafiy qarashlari” mavzusidagi (falsafa fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.F.01.05 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 5-iyun kuni soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.**

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 4-uy.

Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-53-21, 246-02-24;

e-mail: rector@nuu; devonxona@nuu.uz

**To‘raxanov Safarali Ibrohimovichning 05.09.05 – Qurilish materiallari va buyumlari ixtisosligi bo‘yicha “O‘z-o‘zidan zichlashuvchi keramzitbetonning tarkibi va xossalari” mavzusidagi (texnika fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.26/30.12.2019.T.11.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 3-iyun kuni soat 13:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.**

Manzil: 100084, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Yangishahar ko‘chasi, 9-uy.

Tel/faks: (90) 372-71-94, (55) 508-50-14, (71) 234-15-11;

e-mail: devon@taqu.edu.uz

**Xatamov Raximjon Ibroximjon o‘g‘lining 06.01.01 – Umumiy dehqonchilik. Paxtachilik ixtisosligi bo‘yicha “G‘o‘za qator oralarida dukkakli don ekinlarini yetishtirish agrotexnologiyalari elementlarini ishlab chiqish(Andijon viloyatining och tusli bo‘z tuproqlari misolida)” mavzusidagi (qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.05/30.10.2020.Qx.126.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 31-may kuni soat 08:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.**

Manzil: 170600, Andijon viloyati, Andijon tumani, Oliygo‘h ko‘chasi, 1-uy.

Tel/faks: (74) 224-02-82, 224-02-62; e-mail: andqxai@exat.uz

**Umarov Ozod Temirovichning 13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo‘yicha “Malakali voleybolchilarda maxsus jismoniy sifatlarni antropogenetik ko‘rsatkichlarni e‘tiborga olgan holda rivojlantirish” mavzusidagi (pedagogika fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 31-may kuni soat 9:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.**

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri,

Metallurglar ko‘chasi, 15-uy.

Tel/faks: (70) 717-17-79, 717-27-27, 717-17-76;

veb-sayt: www.uzdjtsu.uz; e-mail: info@jtsu.uz

**Madolimova Namunaxon Xasanboy qizining 14.00.01 – Akusherlik va ginekologiya ixtisosligi bo‘yicha “Endometrioizning turli shakllarida homiladorlik va tug‘ruqning patologik kechishini prognozlash va oldini olish” mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent pediatriya tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019.Tib.29.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 12-iyun kuni soat 13:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.**

Manzil: 100164, Toshkent shahri, Yunusobod tumani,

Bog‘ishamol ko‘chasi, 223-uy.

Tel/faks: (71) 262-33-14; e-mail: tashpmi@gmail.com

**Sherova Dilorom Abdullayevnaning 09.00.02 – Ong, madaniyat va amaliyot shakllari falsafasi(estetika) ixtisosligi bo‘yicha “Uyg‘unlikning falsafiy-estetik xususiyatlari (Me‘morlik san‘ati misolida)” mavzusidagi (falsafa fanlari bo‘yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.F.01.05 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 5-iyun kuni soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi.**

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 4-uy.

Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-53-21, 246-02-24;

e-mail: rector@nuu; devonxona@nuu.uz

**Alimova Shaxnoza Xamidovnaning 09.00.04 – Ijtimoiy falsafa ixtisosligi bo'yicha “Yangi O'zbekistonda nogironligi bo'lgan yoshlar ijtimoiylashuvining ilmiy-falsafiy tahlili” mavzusidagi(falsafa fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.F.01.05 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 12-iyun kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy.  
Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-53-21, 246-02-24;  
e-mail: rector@nuu, devonxona@nuu.uz

**Xushnaye Obid Axmatovichning 13.00.05 – Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha “Bo'lajak muhandis-o'qituvchilarni ijodiy loyihalash faoliyatiga tayyorlash metodikasini takomillashtirish” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Professional ta'limni rivojlantirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/29.12.2023.Ped.48.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 30-may kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Chimboy-2, 96-uy.  
Tel/faks: (71) 246-92-17, 246-90-37; e-mail: pedagogikinnovatsiyalar@edu.uz

**Sattarova Kamola Abdulnasirovnaning 14.00.01 – Akusherlik va ginekologiya ixtisosligi bo'yicha “Immunizatsiyasiz Rh-manfiy qonli ayollarda homiladorlik patogenezi va uchrashi mumkin bo'lgan asoratlarning o'ziga xos xususiyatlari” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent pediatriya tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019.Tib.29.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 29-may kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100164, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bog'ishamol ko'chasi, 223-uy.  
Tel/faks: (71) 262-33-14; e-mail: tashpmi@gmail.com

**Axmedjanova Xurshida Zokirjon qizining 14.00.01 – Akusherlik va ginekologiya ixtisosligi bo'yicha “Past tuxumdon zaxirali kech reproduktiv yoshdagi ayollarda fertillikni tiklashni optimallashtirish” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent pediatriya tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019.Tib.29.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 29-may kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100164, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bog'ishamol ko'chasi, 223-uy.  
Tel/faks: (71) 262-33-14; e-mail: tashpmi@gmail.com

**Bo'riyev Kamol Suyunovichning 13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg'ulotlari, sog'lomlashtirish va adaptiv jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha “Yosh kurashchilarning musobaqa faoliyatini modellashtirish asosida o'quv mashg'ulotlarini takomillashtirish” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 31-may kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy.  
Tel/faks: (70) 717-27-27, 717-17-76;  
vab-sayt: www.jtsu.uz; e-xat: jtsu@exat.uz; e-mail: info@jtsu.uz

**Soliyev Zokirxoja Maxmudxojayevichning 06.01.04 – Agrokimyo ixtisosligi bo'yicha “Tojikiston respublikasi Sug'd viloyatida turli qishloq xo'jaligi ekinlarida mahalliy fosforidlarni qo'llash jihatlarini va texnologiyasi” mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/07.06.2024.Qx.13.03 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 25-iyun kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 100164, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.  
Tel/faks: (71) 260-48-00, 260-38-60; e-mail: tuag\_info@edu.uz

**Haqnazarova Mohichehra Shavkat qizining 02.00.13 – Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi ixtisosligi bo'yicha “Yuqori faol kislorodli natriy perkarbonat ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish va uning qo'llanilishi” mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.17/7.06.2024.K/T.06.03 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 31-may kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 210100, Navoiy shahri, G'alaba shohko'chasi, 76-“v” uy.  
Tel/faks: (79) 223-23-32, 223-49-66; e-mail: info@nsumt.uz

**Javxarov Jonibek Juraqul o'g'lining 02.00.14 – Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi ixtisosligi bo'yicha “Metilxloriddan quyi molekulyar etilen qatori uglevodorodlarini olish texnologiyasi” mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.17/7.06.2024.K/T.06.03 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 31-may kuni soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.**

Manzil: 210100, Navoiy shahri, G'alaba shohko'chasi, 76-“v” uy.  
Tel/faks: (79) 223-23-32, 223-49-66; e-mail: info@nsumt.uz



## ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI KAFEDRA MUDIRI LAVOZIMIGA TANLOV E'LON QILADI:

– “Adabiyot nazariyasi va zamonaviy adabiy jarayon”;  
– “O'zbek adabiyoti tarixi va matnshunoslik”;  
– “Folklorshunoslik va dialektologiya”;  
– “O'zbek tili va adabiyoti ta'limi”;  
– “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” *kafedra-lariga.*

**TANLOVDA QATNASHISH UCHUN  
QUYIDAGI HUJJATLAR TAQDIM  
ETILISHI LOZIM:**

1. Rektor nomiga ariza.
2. Xodimlarning shaxsiy varaqasi.
3. Ma'lumoti, ilmiy daraja, ilmiy unvoni haqidagi diplom nusxalari.
4. Pasport nusxasi.
5. Ilmiy ishlar ro'yxati (fakultet ilmiy kotibi tomonidan tasdiqlangan holda).
6. Malaka oshirganlik to'g'risidagi guvohnoma nusxasi.

**Hujjatlar e'lon chiqqan kundan boshlab bir oy muddatda qabul qilinadi.**



**Manzilimiz: Toshkent shahri,  
Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib  
ko'chasi, 103-uy, ToshDO'TAU  
kadrlar bo'limi.**

**Murojaat uchun telefon:  
(71) 281-47-10.**

O'zbekiston “Yoshlik” jismoniy tarbiya va sport jamiyati Markaziy kengashining 2025-yil 11-apreldagi 2-sonli va 2025-yil 23-apreldagi 4-sonli Qurultoy qarorlari hamda O'zbekiston “Yoshlik” jismoniy tarbiya va sport jamiyati Toshkent shahar mintaqaviy bo'limining 2025-yil 5-maydagi 3-sonli konferensiya yig'ilish qaroriga asosan, “Yoshlik” jismoniy tarbiya va sport jamiyati Toshkent shahar mintaqaviy bo'limining tuman bo'linmalari faoliyati **TUGATILDI.**

“Yoshlik” jismoniy tarbiya va sport jamiyati Shayxontohur tumani hamda “Yoshlik” jismoniy tarbiya va sport jamiyati Bektemir tuman bo'linmalarining muhr, guvohnomalari yo'qolganligi ham **MA'LUM QILINADI.**



## Taqriz

# YANGI RISOLA: “LUTFIY VA BOBUR”

O'zbek mumtoz adabiyotida yorqin iz qoldirgan so'z san'atkorlari faoliyati, ularning adabiy merosi haqida bahs yuritish ham mashaqqatli, ham zavqli bir ishdur. Shubhasiz, ijodiy barkamollik cho'qqilarida matonat ila mustahkam o'rin tutgan yetuk siymolar necha asrlar o'tsa hamki, badiiy so'z qudratining asl jozibasini adabiyot muhiblariga ko'z-ko'z etib, kitobxonlarni ma'rifat-u ezgulikka chorlab turadi. Ularning asarlariga xos mazmun va badiiyat sirlarini chuqur o'rganish nafaqat adabiyotshunoslik ilmining nazariy jihatlarini yanada boyitish, balki mumtoz adabiyotning mohiyati, ifoda imkoniyatlari, barcha davr va zamonlarga birdek xos bo'lgan barhayot g'oyalarini teranroq tushunishga tadqiqotchini ruhlantiradi.

Bezavol qalam ahli orasida alohida mavqe tutgan ikki ulug' zot: "malik ul-kalom" (Alisher Navoiy e'tirofi. – M.A.) Mavlono Lutfiy va Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi ma'no, ifoda va badiiy tasvir mahoratidagi o'zaro mushtaraklik, maslag-u maqsadning yaqinligiga ko'ra ham diqqatga sazovordir. Ular ijodiga tadqiq va tahlil tamoyili asosida yondashilsa, bu fikrlarning to'g'riligiga ishonch hosil qilish mumkin. Zahmatkash olim A. O'ZR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti yetakchi ilmiy xodimi Burobiya Rajabovaning yaqindagina "Fan" nashriyotida e'lon qilingan "Lutfiy va Bobur" risolasini mutolaa qilib, bunga yana bir bor amin bo'ldik.

Mazkur kitob 2 qismdan tashkil topgan, ya'ni kirill va lotin alifbolarida nashr etilgan. Bu esa turli yosh toifasidagi kitobxonlar ommasining risola bilan yaqindan tanishishlari imkon berishi shubhasizdir. Respublikamiz nashriyotlari orasida o'z nomiga yarasha "yuk ko'tarayotgan", aniqrog'i, salmoqli ilmiy nashrlarning yuzaga chiqishida astoydil jonbozlik ko'rsatayotgan "Fan" nashriyotiga ham ezgu xizmatlari uchun tashakkur aytish o'rinli bo'lar, nazarimizda.

Alisher Navoiyga qadar bo'lgan o'zbek mumtoz adabiyotida Lutfiy she'riyati muayyan bir bosqichni tashkil qilgani ma'lum. Buyuk mutafakkir shoir o'ziga ustoz maqomida bilgan Mavlono Lutfiyni bir necha asarlarida ehtirom bilan yod etadi. Ijodining ilk davridayog' ulug' salafining rag'bat-u e'tirofiga sazovor bo'ladi. Shubhasiz, turkiy adabiyot rivoji, ayniqsa, mumtoz she'riy janrlar va obrazlar taraqqiyotida "malik ul-kalom"ning beqiyos o'rni bor. Risola muallifi Lutfiy adabiy merosiga munosabat bildirganda, eng avvalo, ana shu jihatlarini e'tiborda tutadi. To'g'ri, hozirga qadar Lutfiy faoliyati va ijodiy merosi xususida adabiyotshunoslikda ko'plab tadqiqot yaratilgan. Kitob muallifi P.Qayumov, N.Mallayev, S.Erkinov, S.G'aniyeva singari bir qator yetuk olimlarning ishlariga diqqat qaratadi, ularning muvaffaqiyatlarini e'tirof etadi. Shuningdek, "Gul va Navro'z" dostoni haqida adabiyotshunoslikda mavjud bahslarga ham to'xtaladi. Risolaning Lutfiyga bag'ishlangan qismi "Hayoti va ijodi", "Malik ul-kalom" Lutfiy", "Lutfiy devoni", "Lutfiy g'azallarining badiiyati", "Suxan qasidasi" bo'limlaridan tashkil topgan.


Ko'rinadiki, barcha masalalar aniq qo'yilgan va muayyan bir yo'nalishga qaratilgan. Lutfiy tarjimai holi, uning davr ijtimoiy, adabiy hayotidagi maqomi, "Devon"ining tarkibiy tuzilishi, g'azallari poetikasi bi-

lan bog'liq xususiyatlar tizimli ravishda ochib berilgan. Ayniqsa, Lutfiyning fors-tojik adabiyoti mashhur vakili Abdurahmon Jomiyga bag'ishlab yozgan 100 misradan ortiqroq "Suxan qasidasi" haqidagi nazariy qarashlar e'tiborga molik. Qasidada temuriy hukmdorlar, xususan, Shohrux mirzo va uning farzandlari bilan bog'liq lavhalar, ayrim badiiy san'atlar vositasida real hayotiy voqealarga qilingan ishoralar mavjudligi "Matlayi sa'dayn" tarixiy asariga tayanib yoritilgan. Qolaversa, mazkur risola Lutfiy borasidagi ilmda o'zigacha ma'lum bo'lgan fikrlarni umumlashtiradi va kitobxonga shoirning shaxsiyati, badiiy mahorat sirlari xususida ham yaxlit xulosa beradi. Kitobning "Lutfiy va Bobur" deb nomlangan qismi ikki ijodkor haqidagi fikr-qarashlarni bir-biriga bog'lash uchun xizmat qilgan, desak xato bo'lmaydi. Olima Boburning "Muxtasar" asari misolida Lutfiy she'rlariga qaratgan e'tibori, aruz vazniga doir nazariy qarashlarini dalillash uchun ulug' salafidan yorqin misollar tanlagani va Bobur ijodida Lutfiy an'analari mahorat bilan davom ettirilganiga to'xtaladi. Bir necha adabiyotshunoslarning mulohazalari, jumladan, "Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi"dagi "Lutfiy" maqolasida yoritilgan fikrlar asosida o'z xulosalarini bildiradi. Masalan: "Bobur yana kitobning "Ikkinchi vazni" faslida Mir Shohiy, Navoiy, Mavlono Jomiy, Hiloliy, Salmon kabi ulug' shoirlar qatorida Lutfiy she'rlaridan quyidagi misollarni keltiradi.

**Lutfiy (to'rtlik):**

*Kesti bag'rim tomirlarini bori,  
G'amza birla aning itik baqori.  
Marhamattin yiroq emas so'rsang,  
Kim yovuqtur bu xastaning safari".*

Risolaning Bobur mirzo ijodi tahlil qilingan bo'limida o'ziga xos yondashuv mavjud. Bu uning qismlari nomlanishida ham ko'zga tashlanadi: "Bobur ruboiylarining badiiy xususiyatlari", "Boburnoma"da Mirzo Ulug'bek ta'rifi", "Mushtarak tarixiy hodisalar tasviri", "Nosir Xusrav va Bobur", "Ibn Battuta va Bobur", "Jomiy va Bobur", "Sa'diy, Navoiy, Koshg'ariy, Bobur izidan". Xilma-xil mavzulardagi ayrim chizgilar, tezis shaklidagi talqinlar ilmda yanada kengaytirish, chuqurlashtirish mumkin bo'lgan muammolarni ham o'rta qatag' tashlaydi. Olima o'zaro qiyos, taqqos tamoyili vositasida Bobur ijodkorligining xos belgilarini yanada aniqroq va teranroq ko'rsatishga harakat qiladi. Ba'zi ma'lumotlar adabiyotshunosning sinchkovligi, daqiq



nigoh bilan masalaning mohiyatiga teran nazar tashlashiga dalil bo'ladi. Jumladan, "Muallif, – deb yozadi olim, – "Amir Xusrav Dehlaviy" nomli fiqrada Mirzo Ulug'bek nomi iste'dodli ukasi Boysunqur mirzo bilan birga tilga olingan va Boysunqur mirzoning Amir Xusrav Dehlaviy "Xamsa"sini shayx Nizomiy "Xamsa"sidan ortiq ko'rishi, Ulug'bek Ko'ragon esa shayx Nizomiy "Xamsa"sini ortiq ko'rib mutolaa qilishi haqida gapirgan". Bu orqali Bobur mirzoning iste'dod darajasi, voqealarni bayon qilish iqtidoriniga emas, balki Mirzo Ulug'bek dunyoqarashi va mutolaa bilan bog'liq qiziqishlarini ham mushohada qilishga imkon yaraladi. Ayniqsa, fors-tojik adabiyotining yana bir yorqin vakili Nosir Xusravning "Safarnoma", mashhur sayyoh va tarixchi Ibn Battutaning "Sayohatnoma" asarlari bilan "Boburnoma"dagi Samarqand, Kesh, Buxoro kabi shaharlar tasviriga oid talqinlar qiyosi nihoyatda qiziqarli- ligi, yangiligi bilan o'quvchi e'tiborini tortadi. Boburning Jomiyga munosabati, ayniqsa, "Boburnoma"dagi Abdurahmon Jomiy borasida aytilgan fikrlar, "Muxtasar"da ulug' shoir she'riyatiga murojaat etilgan o'rinlar ham ilmiy jihatdan atroflicha tahlil qilingan. Risolaning "Sa'diy, Navoiy, Koshg'ariy, Bobur izidan" qismida adabiyotshunos jadid ma'rifatparvari Abdulla Avloniy ijodiga to'xtaladi. Xususan, "Ikkinchi muallim" darsligidagi ayrim hikoyatlar va yozuvchi ma'naviy olamining nekbin jihatlarini tadqiq etiladi. Avloniy umumbashariy g'oyalari, ulug'vor qarashlari bilan salafllari yo'lini davom ettirgani rost. Shunisi ham borki, Avloniyning "Afg'on sayohati" memuarida "Boburnoma"ning ta'siri ham yaqqol sezilib turadi. Risolada ana shular xususida ham bahs yuritilgan.

Umuman olganda, Burobiya Rajabovaning "Lutfiy va Bobur" risolasi mavzu kengligi, muallif talqinlarining o'ziga xosligiga ko'ra adabiyotshunosligimizdagi kemptikliklarni to'ldirishga xizmat qiladi, deb ishonamiz. Kitob keng kitobxonlar ommasi, xususan, tadqiqotchilar, adabiyot muallimlari va talabalar uchun muhim qo'llanma bo'la oladi va ko'pgina foydali materiallar beradi.

**Maqsud ASADOV,**  
filologiya fanlari doktori,  
professor

# Marifat

**TA'SIS ETUVCHILAR:**

O'zbekiston maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi,  
O'zbekiston oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,  
O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari  
kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

**Bosh muharrir:** Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida  
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.  
Indeks: 149 150. V-5941. Tiraji 7227

Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan.  
Qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

**TELEFONLAR:**

Tel/faks: (71) 212-01-50



"Ma'rifat"dan  
materiallarni ko'chirib  
bosish tahririyat  
ruxsati bilan amalga  
oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan  
qo'lyozmalar taqriz  
qilinmaydi va mual-  
lifga qaytarilmaydi.

Mobil ilovani  
yuklab olish uchun  
ushbu QR-kodni  
skanerlang:

(t) – tijorat belgisi.



**Dizayner:** Malohat Toshova.  
**Navbatchi muharrir:** Faxriddin Rahimov.  
**Navbatchi:** Bobomurod Xudoyberdiyev.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

**MANZILIMIZ:**

100099 Toshkent shahri,  
Darvozakent ko'chasi, 60-uy.  
Web-site: www.marifat.uz

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa  
ijodiy uyida chop etildi.  
**Korxona manzili:** Toshkent shahri,  
Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.